

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX FAKULTETI

**5141500 – “Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari”
ta'lim yo'nalishi**

**4-kurs talabasi Mamatmurodov Umidning
«Markaziy Osiyolik buyuk allomalar ijodida ahillik va
bag'rikenglik g'oyalari»**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

***“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi” kafedrasi
o'qituvchisi H.O.Abuyev***

Navoiy – 2013

Mavzu: Markaziy Osiyolik buyuk allomalar ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari.

Reja

Bitiruv malakaviy ishining tushuntirish qismi

I bob Buyuk allomalar Imom al-Buxoriy, Abu Mansur Moturidiy, Maxmud az-Zamaxshariy ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari

1. Imom al-Buxoriy ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari
2. Abu Mansur Moturidiy ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari
3. Maxmud az-Zamaxshariy ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari

II bob XIX asr oxiri va XX asr ma'rifatparvarlari hamda jadidlar ijodida tinchlik va bag'rikenglik

1. Axmad Donish ijodida tinchlik va bag'rikenglik
2. Maxmudxuja Bexbudiy ijodida tinchlik va bag'rikenglik
3. Abdulla Avloniy va Fitrat ijodida tinchlik va bag'rikenglik

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Bitiruv malakaviy ishining tushuntirish qismi

«Markaziy Osiyolik buyuk allomalar ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari» deb nom olgan ushbu bitiruv malakaviy ishi dolzarblik tomoni yoshlar tarbiyasida ahillik va bag'rikenglik g'oyalarini singdirishda ajdodlarimiz ma'naviy merosidan foydalanish va bu orqali ta'lim tarbiyada asosiy maqsadga erishishdir. Bugungi kunda yadro poligonlarida emas, balki mafkuraviy poligonlarda ko'p masalalar hal bo'lmoqda. bitiruv malakaviy ishi yoshlarning diniy ekstremizm, aqidaparastlik kabi turli xil yot va zararli oqimlarga kirib qolishlarini oldini olishga, mafkuraviy bo'shliqni milliy istiqlol g'oyasi bilan to'ldirishga xizmat qiladi deb umid bildiramiz. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaxolatga qarshi faqat ma'rifat bilangina kurash olib borish zarurligi hozirgi davr talabi sifatida ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishuvi sharofati bilan barcha sohalarda, ayniqsa, ma'naviyatimiz tarixini, madaniy merosimizni har tomonlama ilmiy, xaqqoniy o'rganishga keng imkoniyatlar yaratilishi tufayli o'tmishda madaniyatimiz rivojiga bevosita va bilvosita katta hissa qo'shgan, biz uchun noma'lum bo'lgan yoki inkor etib kelingan shaxslarning nomlari endigina har tomonlama o'rganilmoqda.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi ham Markaziy Osiyolik va Markaziy Osiyoda faoliyat ko'rsatib, tarixda o'z asarlari, xizmatlari, ijodi bilan iz qoldirgan, madaniyat rivojiga qushgan ulkan hissalar uchun dunyoda nom qozongan siymolar haqida ma'lumot beriladi. bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi IX-XII asrlardagi madaniy hayotga bag'ishlangan bo'lib, Imom al-Buxoriy, Abu Mansur Muhammad Moturidiy va Maxmud az-Zamaxshariy madaniy hayotning yuksalishiga qo'shgan hissalar haqida keng ma'lumot berilgan. Buyuk alloma Imom al-Buxoriyning asarlaridagi ota-onaga, farzandlarga, insonlarga, ayniqsa, jamiyatdagi yetim-yesir, bevalarga yaxshilik qilish kabi chaqiriqlarni o'rganish bugungi kunda muhimdir. Inson uchun dunyoda eng mo'tabar zotlar ota-ona hisoblanadi. Islom manbalarida ota-onani ulug'lash, ularning xizmatini qilish eng savobli amallardan ekanligi alohida ta'kidlanadi. Chunki bag'rikenglik, halollik-poklik, iymon, e'tiqod kabi xislatlar ilk

bora aynan oilada, mahallada singdiriladi. Bu esa ota-onaga, maxalla-kuyga katta mas'uliyat yuklaydi. Darhaqiqat, dono xalqimiz «qo'shning tinch, sen tinch» deb, bejiz aytmagan. Shuning uchun ham ma'rifat, ma'naviyat kuchli bo'lgan, ilm-fan rivojlangan mamlakatda har doim tinchlik-osoyishtalik hukm suradi.

Maxmud az-Zamaxshariyning «Maqomat az-Zamaxshariy» asariga alohida e'tibor qaratilgan. Unda yaxshilik va yomonlikni bir-biriga taqqoslab, yaxshilik qancha bo'lsa ham oz, yomonlik esa ozgina bo'lsa ham qanchalik halokatli oqibatlariga olib kelishini ko'rsatgan. Shuning uchun ham u insonlarni ogohlikka va mehr-oqibatga chaqirgan. Allomaning zamon talablariga javob bera oladigan, insonlarni ezgulik, xayrli ishlarga undab, ularni buzg'unchilik, hasad, yomon ishlardan qaytarishga qaratilgan asarlaridan biri «Atvok o'z-zaxab fil-mavo'iz val-xutab» asaridagi komil inson tarbiyasi, jamiyat hayotiga salbiy ta'sir qiladigan illatlar yuzasidan qizikarli muloxaza yuritilgan. Chunki ma'nan va jismonan yetuk komil insonlarga eng oliy ne'mat, muxim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lgan mustaqillikni mustahkamlashga, tinchlikni asrab-avaylashga qodir bo'ladi.

Allomalarimiz asarlaridan keltirilgan parchalar bugungi kun yoshlari mafkuraviy immunitetini shakllantirishda muxim o'rin tutadi. YA'ni tinch-totuvlikni asrab-avaylash, mustaqillikni mustahkamlash naqadar muhim ekanligini yoshlarning ongi va qalbiga singdirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi bob XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmidagi madaniy hayotga bag'ishlangan. Bu davrda Sharq mamlakatlari, jahonda bo'lib o'tgan o'zgarishlar va shu davrda Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi va mustamlakaga aylantirilishi ta'sirida madaniyatimiz rivojida ham yangi, muhim to'lqinlar, o'zgarishlar vujudga keldi va yangi davrni boshlab berdi. Umuman olganda, ushbu asrlarda O'zbekistonning 130 yillik asoratdagi tarixi ikki mustamlaka davrga tug'ri keladi: birinchisi chor Rossiyasi davri bo'lsa ikkinchisi qizil imperiya davri, deb yuritiladi. Bu ikki mustamlakachilik siyosatining ham yemirilish davrlari bor. Ayni shu davrda milliy ozodlik harakati namoyandalari, yurtning boshidagi millat fidoyilari ta'lim isloxoti borasida fikrlaganlar, isloxotni amalga oshirish, tarakkiyot yo'llarini

qidirganlar. Chor Rosssiyasining yemirilish davri maxalliy ziyolilar - jadidlarning milliy ozodlik harakatiga tug'ri keladi. Shu murakkab davrda yashab, ijod qilgan Axmad Donish, Bexbudiy, Fitrat, Avloniy va boshqa jadidlarning hayoti, qilgan ishlari, dolzarb g'oyala-ri, orzulari haqida ikkinchi bobda ma'lumot beriladi.

Ularning maqsadi ma'naviyatni, ta'limni, ilm-fanni rivojlantirish bilangina jaholatga qarshi ko'rash olib borish edi. Ma'naviyati yuksak, har tomonlama yetuk, komil, bilimli yoshlarga boy bo'lgan davlatgina taraqqiyotga qodir deb xisoblashgan. Chunki har bir ma'rifatparvar kelajakni o'z ko'zi, dunyoqarashi ila qurgan va intilgan. Masalan, Axmad Donish hukmronlarni adolatga chaqirib, rivojlangan davlatlar qatoriga intilgan bo'lsa, Fitrat, Avloniy, Cho'lponlar murosa, tinch yo'l bilan ilm-fanni rivojlantirib, komil insonlarni tarbiyalash bilan mustaqillikka erishishni orzu qilishgan. Bunda ular alohida e'tiborni millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, ozodlik, erkinlik, hurfikrlilik, hamfikrlilik kabi g'oyalarning naqadar muhim ekanligiga qaratishgan.

Bugungi kunda ham ularning g'oyalari o'z qadr-qimmatini, ulug'vorligi bilan jiddiy ahamiyatga ega. Chunki jadidlar orzu qilgan yuksak ma'naviyat faqat yuksak axloqiy fazilatlarining o'zi emas, u ayni paytda yuksak siyosiy dunyoqarash, yuksak zamonaviy bilim va malaka, fidoyilik va Vatan kelajagiga ishonchdir. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek: «Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar haloqatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir»¹.

¹ Каримов И.А. «Тарихий хотирасиз келажак йук», Тошкент, 1998 йил, 7-бет.

I bob Buyuk allomalar Imom al-Buxoriy, Abu Mansur Moturidiy, Maxmud az-Zamaxshariy, Alisher Navoiy ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari

1. Imom al-Buxoriy ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari

"Amir ul-mu'minin fil-hadis" - "Hadis bobida mo'minlarning amiri", "Imomu-l-muxaddisin" - "Muxaddislar imomi", "Sayyid ul-fuqaho" - "Faqixlar sarvari" va "Imom ud-dunyo" - "Butunjaxon imomi" kabi o'ta sharaflı nomlarga sazovor bo'lgan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibroxim ibn al-Mugira ibn Bardazbex ibn Bazazbex al-Ju'fiy al-Buxoriy xijriy sananing 194 yili, shavvol oyining 13-sida juma namozidan so'ng, melodiy 810 yilning 20 iyul kuni Buxoro shahrida tavallud topdi.

Muhammad avvalo Buxoro shaxridagi zamonasining eng mashxur ulamo va muxaddislari xo'zurida ta'lim oldi. U yoshligidan ajoyib xotirasi, o'tkir zexni va mislsiz kobiliyati bilan boshqa tengdoshlaridan ajralib turar edi. O'n yoshida Qur'oni Karimni va Rasululloh (s.a.v.)ning o'n mingdan ziyodroq hadislarini yoddan bilar edi. Bu haqda Imom al-Buxoriyning o'zi shunday deydi: "Men boshlangich madrasada o'qigan paytimdayoq Alloh menga hadislarini yodlash ilxomini (iqtidorini) ato etgandi".

Imom al-Buxoriy bolaligida otasi qazo qiladi. Natijada yosh Muhammad onasi va akasi Ahmad bilan qoladi. Yoshligida ko'zi bir muddat ojiz bo'lib qoladi.

Imom al-Buxoriy 16 yoshgacha ona Vatanida o'z yurti tarixini va shu davrdagi mashhur muhaddis ulamolardan hadis ilmini chuqur o'rganib, hadis va fiqh istilohlarini puxta egallaydi. Jumladan, Muhammad ibn Salom al-Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Musnadiy ibn Salom al-Poykandiy, Ibroxim ibn al-Ash'as va Muhammad ibn YUsuf al-Poykandiylardan saboq oldi. Imom al-Buxoriy qayerda dars olmasin, yozish o'rniga e'tibor bilan tinglab, yodlab olar ekan.

Shu kezlarda Muhammad ibn Ismoil o'z davrining mashxur muhaddislaridan bo'lmish Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy (736-798) va Vaki' ibn al-Jarrox ibn Mulayx ar-Ruasiyning (714-814) katta hajmdagi hadis to'plamini yodlab oladi.

Imom al-Buxoriy eshitgan yoki o'qigan hadislarini yodlash bilan kifoyalanmay, balki tobora bu boradagi maxorati ziyodalashib, ularni saxix va nosaxixga, ya'ni

ishonchli va ishonchsiz, tug'ri va noto'g'riga ajratish, ularning illatlarini aniqlash, hadis roviylarini atroflicha o'rganib tadqiq qilish, rivoyatlarning nechog'lik bog'liqligi va shu kabi hadis ilmiga tegishli bo'lgan masalalar bilan qiziqib, sinchkovlik bilan hadislarni jamlashga bel bog'lagan edi. Bunday yuksak va shu bilan birga o'ta mas'uliyatli vazifani ado etishda o'zi-ning o'tkir akl-zakovati va bor qobiliyatini ishga solgan ediki, bo'larning barchasi u zotning hadisga bo'lgan zo'r qiziqishi va qolaversa, o'ta noyob qobiliyat sohibi ekanligidan darak berardi.

Imom al-Buxoriy olgan ilmlariga qanoat hosil qilmay, o'z oldiga islom madaniyati rivojlangan, hadis roviylari ko'p bo'lgan ulkalarga borib, hadis izlashni maqsad qilib qo'yadi.

825 yili Imom al-Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkai Mukarramaga borib, haj ibodatini ado etgandan so'ng, ularni Vatanga ko'zatib, o'zi esa bu muqaddas diyorning olimlaridan ta'lim olgani qoladi. O'sha paytda Makkada imom Abdulvalid ibn al-Azrakiy, Abdulloh ibn az-Zubayr va alloma al-Hamaviy singari bir qancha mashhur ulamolar bo'lib, Imom al-Buxoriy ulardan saboq oladi. Oradan ikki yil o'tgach, ya'ni 827 yili Madinai Munavvaraga borib, u yerdagi ko'zga ko'ringan ulamolardan Ibroxim ibn al-Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibroxim ibn Hamza, Abu Sobit Muhammad ibn Ubaydulloh, Abdulaziz ibn Abdulloh al-Uvaysiy kabi ko'pgina olimlarning suhbatida bo'lib, ularning ilmlaridan baxramand bo'ladi va shu tariqa hadis borasidagi bilimlarini yanada boyitishga erishadi. Imom al-Buxoriyning shu ikki muqaddas diyorga qilgan ilmiy safarlari olti yilcha davom etadi va shu asnoda vaqtdan unumli foydalanib, o'zining ilk asarlari "Kazoya as-saxoba vat-tobein" hamda "At-Tarix al-kabir" asarlarini yozadi

Bu kitob xususida Muhammad Buxoriy: «Tarixiy shaxslarning har biri haqida menda ma'lumot bor, lekin kitobimning hajmi kattalashib ketmasin, deb qisqarok yozdim», -degan ekan.

Muarrixlar al-Buxoriy hijozga qilgan safarlari davomida muqim turmay, o'zga mamlakatlarga ham chiqib turgan, deb ta'kidlashadi. SHundan so'ng alloma SHarqning nufo'zli ilmiy markazlaridan biri bo'lgan Basra tomon yo'l oladi va u yerda

Safvon ibn Iso, Imom Abu Osim an-Nabil, Badal ibn al-Muxbir, Xurmi ibn al-Amora, Affon ibn Muslim, Muhammad ibn Ar'ara, Sulaymon ibn Harb, Abdulvalid at-Tayolisiy, A'rim va Muhammad ibn Sinon kabi ulamolardan ta'lim oladi.

Shoshlik muhaddis Homid ibn Ismoil ibn Iso al-Buxoriy al-G'azzol (vaf.875) shunday degan: "Imom al-Buxoriy o'spirin chog'ida biz bilan birga Basra mashoyixlaridan hadislar eshitardi. Hammamiz ustozlardan eshitganlarimizni yozib olar edik, al-Buxoriy esa xech narsa yozmasdan, faqat tinglab o'tirardi. SHu tarifa 16 kun o'tgach, u birdan: «Nazarimda ko'p hadis eshitib yubordinglar, qani menga yozganlaringizni ko'rsatinglarchi?", -deb qoldi. Biz hisoblab ko'rsak, o'n besh mingdan ortiq hadis yozgan ekanmiz. SHunda al-Buxoriy ularning barchasini yoddan aytib berdiki, hatto ustozlardan yozib olgan ba'zi hadislarimizdagi yo'l qo'yilgan xatolarni uning yoddan aytganlariga qarab to'zatib ham oldik" degan fikrni bildiradi.

Al-Buxoriy Basraga, so'ng Kufaga boradi va u yerda Abdul-lox ibn Muso, Abu Nuaym, Axmad ibn YA'kub, Ismoil ibn Abon, al-Xasan ibn Rabi', Xolid ibn Muxallad, Sa'id ibn Xafs, Talk ibn Gunam, Amr ibn Xafs, Urva, Kutayba ibn Akaba, Abu Gasson va shu kabi olimlardan hadis eshitadi. SHuningdek, o'sha davrda ilm-fan o'chog'iga aylangan, Abbosiylar xalifaligining poytaxti bo'lmish Bag'dodda ham bir necha bor bo'lib, yuksak hurmat-e'tibor bilan qarshi olingan. Imom al-Buxoriy bu shaharda Muhammad ibn Iso at-Tabbot, Muham-mad ibn Soik, Axmad ibn Xanbal, SHurayx ibn Nu'mon kabi olimlardan hadislar yozib olgan.

Al-Buxoriy shundan so'ng Misrga borib, Sa'id ibn Abu Iso, Axmad ibn SHuayb kabi olimlardan dars olgan. Mesopotamiyada ham bo'lib, Axmad ibn Abdumalik al-Harroniy, Axmad ibn Yazid al-Harroniy singari ulamolardan hadis eshitgan.

Hadis ilmiga bo'lgan chukur muhabbati tufayli olim yuqorida nomlari zikr etib o'tilgan shaharlarga fakat hadis ilmidan saboq olish uchungina borib, u yerdagi mashxur ulamolar bilan yuzma-yuz uchrashib, o'z ilmlarini boyitishga muvaffaq bo'lgan.

Muhammad ibn Xotamning yozishicha, Imom al-Buxoriy: "Bir ming saksonta shayxdan hadis eshitganman", - degan ekan. Imom al-Buxoriyning hadis ilmi

borasidagi bilimi shunchalik mukammal bo'lganki, uning saboqlariga butun islom olamidan tolibi ilmlar yogilib kelgan. Bunday ilm davralari Bag'dod, Xijoz va o'z ona diyori - Buxoroda uyushtirilgan.

Imom al-Buxoriy ko'plab shogirdlar yetishtirgan. Bu xususda al-Firabiy: "Imom al-Buxoriyning bevosita o'zidan 90 ming kishi hadis eshitgan", - degan.

Muallifning ta'kidlashicha, Imom al-Buxoriydan saboq olib, uning ilmidan istifoda etganlar orasida hatto mashhur ustozlari ham bo'lgan. Jumladan, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnaviy, Abdulloh ibn Munir, Isxoq ibn Axmad, as-Samariy, Muhammad ibn al-Xalaf va ibn Kutayba kabilardir. Bu buyuk ulamolar yuksak martabaga ega bo'lishlariga qaramasdan, hadisshunoslik soxasidagi o'z malakalarini oshirish niyatida Imom al-Buxoriydan saboq olganlar.

Imom al-Buxoriyga tengqur bo'lib, uning ilmiy majlislariga qatnashgan buyuk olimlardan imom Abu Zur'a ar-Roziy, Abu Xotam ar-Roziy, Ibroxim al-Harbiy, Abu Bakr al-A'yin va boshqalar bo'lib, ular hadisshunoslik soxasidagi isnod, tarix, hadis, illatli hadis hamda ta'dil ilmlari buyicha o'z davrining buyuk allomalari edi.

Imom al-Buxoriyning shogirdlari orasida shon-shuhrat cho'qqisiga ko'tarilgan, hadis va fiqh ilmlari rivojiga katta hissa qo'shganlardan imom Muslim al-Xajjoj, imom Abduraxmon an-Nasoiy, imom Abu Iso at-Termiziy, imom Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, imom ad-Dorimiy, mashhur faqih imom Xazima kabilar ustozlaridan olgan ilmlarini oqlab, mashxur muxaddis olimlar bo'lib yetishganlar².

Imom al-Buxoriy Pag'ambarimiz (a.s.)ning muborak so'zlarini yig'ar ekan, har bir hadisni sinchiklab tadqiq etgan. SHunday voqealar ham sodir bo'lganki, bir hadisning roviysi bilan muloqotda bo'lish va uning o'zidan shu hadisni eshitish niyatida cheksiz va suvsiz saxrolarni bosib o'tishga tug'ri kelgan. Haqiqatdan ham, Imom al-Buxoriy o'z roviylariga juda jiddiy talablarni qo'ygan. Jumladan, roviylar o'zlarining adolatliliklari, yaxshi xotiralari bilan tanilgan bo'lishlari lozim edi. Imom al-Buxoriyning eng muxim ishi shu ediki, bir roviy bilan undan rivoyat qilgan roviy o'rtasida shaxsiy muloqot sodir bo'lgan bo'lishi lozim edi.

² Уватов У. Буюк муххаддислар. Т., 1998 й., 28-бет.

Shu tarika alloma saxix hadislarni aniqlash borasida muayyan tartib-qoidalarni ishlab chiqib, mazkur yo'nalishga asos soldi. Ushbu qoidalar quyidagi besh banddan iborat shartlarda o'z aksini topgan:

1. Barcha hadis roviylari, to saxobalarga qadar omma yakdillik bilan tan olgan obru-e'tiborli, ishonchli, iymoni but, rostguy, halol, zexni o'tkir musulmon bo'lishi;
2. Sanadda (ya'ni roviylar zanjirida) uzilish bo'lmasligi;
3. Roviylar o'z ustozlari (ya'ni rivoyat qilayotgan kishisi) bilan shaxsan muloqotda bo'lgan bo'lishi;
4. Hadislarning saxixligini o'zidan oldin yashab o'tgan salaf ulamolar yoinki, hech bo'lmaganda, o'ziga zamondosh muhaddislar bir ovozdan e'tirof etgan bo'lishlari;
5. Rivoyat qilinayotgan hadis har qanday xato-kamchiliklardan xoli bo'lishi kerak.

Imom al-Buxoriy asosan mana shu shartlarga tayanib, shox asari "Al-Jomi' as-saxix"ni ta'lif etgan. Imom al-Buxoriy hayotining so'nggi sanalarida Buxoroga qaytib keladi va ijod bilan mashg'ul bo'ladi. Aynan shu vaqtdan muhaddis huzuriga turli o'lkalardan tolibi ilmlar kela boshlaydilar. Buxoro hokimi Xolid ibn Axmad az-Zuxliy al-Buxoriydan saroyga kelib, unga va o'g'illariga saboq berishni talab qiladi. SHunda alloma uning chopariga: «Men ilmni xor qilib, uni hukmdorlar ostonasiga tashlab quymayman», - deb javob qiladi. SHundan keyin hokim agar imom saroyga kelishni istamasa, bolalari uchun maxsus vaqt ajratib, dars berishini, unda boshqa talabalar ishtirok etmasligini ta'kidlab, yana elchi yuboradi. «Lekin bu safar ham rad javobini berib, ilm olishda xossu avom teng huquqqa ega ekanligini bildirib, agar hukmdor ilm olish maqsadida bo'lsa, uyi yoki masjidga kelishini so'rab: "Agar taklifim ma'qul kelmasa, siz hokimsiz, mening dars berishimni man qilishingiz mumkin, lekin odamlardan ilmni berkitmayotganim uchun qiyomatda Alloh huzurida bir uzr bo'ladi", -deydi. Bu dadil javobdan g'azablangan hokim allomani surgun qilish yo'llarini qidiradi. CHunki alloma behisob musulmonlarning mehru muxabbatini qozongani tufayli, hokim uni kuch bilan chiqara olmas edi. Lekin hokim ayyorlik bilan boshqacha yo'l tutdi - bir to'da ig'vogarlarini to'plab, allomaga qarshi xaloyiqning g'azabini qo'zqatadigan gaplarni izlab topishni amr etdi. SHundan

foydalanib, ular muhaddisning sha'niga noloyiq gaplarni tarqatganlar. Hokim shuni rukach qilib, allomani shahardan chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Imom Buxorodan chiqib, Poykentga keladi. Poykentliklar ham bu tuxmatlardan xabar topib, ikkiga bo'lingan edi. Bu holatni ko'rib, bu yerda yashab qolishni o'ziga ep ko'rmagan muhaddis Samarqandga yo'l oladi. Biroq samarqandliklar ham unga nisbatan turli fikrda ekanligini sezib: Allohga iltijo qiladi «Allohim dargohing naqadar keng bo'lmasin, yer yuzi menga torlik qilib qoldi. Endi meni o'z raxmatingga olgin!» - deya iltijo qiladi.

Ko'p o'tmay muhaddis betob bo'ladi va 256 hijriy sananing Ramazon hayiti kechasi, 870 yilning 31 avgustida vafot etadi.

Buyuk vatandoshimiz Imom al-Buxoriy nodir zexni, zo'r ijtixodi-yu, noyob iste'dodlari bilan hadis ilmi soxasidagi buyuk xizmatlari tufayli o'z zamondoshlari orasida ham, keyingi avlodlar orasida ham katta hurmatga sazovor bo'lib, bu ilmda tengi yuq alloma bo'lganliklarini barcha e'tirof etadi.

Imom al-Buxoriy nafaqat buyuk alloma, balki o'zining go'zal husni xulqi, odamoxunligi, purhikmat ekani va beqiyos darajadagi saxovati bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan.

Imom Buxoriy o'zidan katta hajmdagi ulkan ilmiy meros qoldirgan. Uning "Al-Jome' as-saxix", "Al-Adab al-mufrad", "At-Tarix al-kabir", "At-Tarix as-sag'ir", "Kitob al-ilal", "Kitob asmo as-sahoba" kabi asarlari davrimizga qadar yetib kelgan va ma'naviy merosimizning nodir durdonalari-dan hisoblanadi.

Olimning "Al-Jome' as-saxix" asari aloxida ahamiyat kasb etadi. Undagi adab bo'limiga (adab kitobi) ham ko'plab e'tiborga molik, purma'no hadislar kiritilgan. Bu bo'limdan odob-axlok, kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, inson va tabiat muvofiqligi kabi mavzularga oid hadislar o'rin olgan. "Saxix al-Buxoriy"ning turtinchi jildidan o'rin olgan ushbu bo'limda 128 ta bob bo'lib, ularda jami 256 ta hadis jamlangan. Ulardan 181 tasi muttasil, qolgan 75 tasi esa muallaqdir. Mazkur hadislarining 20 tasi asarning boshqa o'rinlarida ham biroz o'zgarishlar bilan

qaytarilgan. Bu bo'limdagi hadislarning 237tasini imom Muslim ham o'z kitoblarida keltirgan.

Ushbu bo'limdagi boblarning mavzulariga nazar tashlasak, quyidagilar namoyon bo'ladi: bo'lim ota-onaga yaxshilik qilish haqidagi hadislar bilan boshlanadi. Bu bejiz emas, chunki islom dinida ota-onaga itoat qilish va ularning xurmatlarini joyiga quyishga katta e'tibor qaratilgan. Ota-onaga bo'ysunishning mukofotlari-yu, ularga osiylikning gunoxligi haqidagi hadislardan so'ng aka-uka va qarindoshlarning o'zaro mexr-oqibatlariga oid hadislar keladi. Keyin esa, bolalarga yaxshilik qilish, ularni erkalash xususida hadislar yoritiladi. 24-27-boblarda esa o'ksik kishilarga mexribonlik qilish fazilati haqida so'z boradi. Bu hadislarda jamiyatdagi yetim-esirlar, bevalarga e'tibor qaratib, ularning xizmatlarida bo'lishga chaqiriqlar aks etadi.

Ma'lumki, islomda quni-qushnichilikka katta e'tibor berilgan. Asarda insonga u yoki bu jihatdan yaqinligi bo'lgan yoki biror musibat yetgan kishilarga mehribonlik qilish borasidagi hadislardan so'ng insonga xos fazilatlar, xulk-atvor haqida so'z yuritiladi. Ularda shirinso'zlik, xushmuomalalilik, o'zaro yordam, saxovat haqida hadislar keltiriladi. So'ngra esa, har bir musulmon yiroqlashishi lozim bo'lgan xulqlar haqida so'z boradi. Ularda g'iybat, munofiqlik, so'kish va boshqa mavzular ham yoritiladi. Bundan tashqari, adab bo'limidan gumon, kibr, arazlash, tabassum qilish kabi odoblarni sharxlovchi hadislar ham o'rin olgan.

Ko'rinib turibdiki, asarda inson hayotida muhim bo'lgan birlamchi odob-axloq haqidagi hadislar keltirilgan. Ularning o'zaro uzviylikda kelishi kishi diqqatini tortadi. YA'ni bo'lim ota-onaning roziligini olish haqidagi hadislar bilan boshlanib, aka-uka va qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarga o'tiladi. So'ng qo'ni-qo'shni bilan aloqalarni yaxshilash, barcha musulmonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, kishilar o'rtasidagi munosabatlardan bevosita insoniy xususiyatlarga o'tiladi. Demak, Imom al-Buxoriy o'z asarini ta'lif etishda amal qilgan tartibga bo'limlarning ichki tarkibida ham rioya qiladi - har bir bob o'zidan oldingi va keyingi bobga uzviy bog'liqlikda keladi.

Bo'larning bari al-Buxoriyning mug'addislik ilmini naqadar chuqur egallaganini va uning "Saxixi al-Buxoriy" asari bejiz bu soxadagi asarlarning gultojisi hisoblanmasligini ko'rsatadi.

Imom al-Buxoriy "Adab" kitobini "Itoatkorlik va mehribonlik" haqidagi bob bilan boshlaydi. Tabiiy ravishda odam uchun eng mehribon, aziz insonlar hisoblangan ota-onalarga ko'rsatilajak mehr-muruvvat olimning diqqat markazida turgan, shu bois u aynan shu mavzuga alohida diqqatni qaratadi. Jumladan, Muhammad (s.a.v.)dan Alloh taolo azza va jallaga kaysi amal mahbubroqdir, deb so'raganlarida, Paygambar (a.s.) shunday amallardan biri sifatida ota-onaga itoat qilmoqlikni keltiradilar, ya'ni insonni dunyoga keltirib uni oq yuvib, oq tarab, o'stirib, hayotda o'z yo'lini topishga yordam bergan ota-onaga doimo itoat etish zarurligi ko'rsatiladi. CHunki bu ulug' zotlar o'z farzandlariga hech qachon biror bir yomonlikni ravo ko'rmaydilar.

Bu o'rinda, ayniksa, onalar xurmatining juda e'zozlanishini ta'kidlash lozim: Abu Hurayra rivoyat qiladilar: "Bir odam Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib: «YO Rasululloh, mening yaxshi muomala qilmog'imga kim haqlirokdir?" - deb so'radi. Janob Rasululloh: «Onang!" - deb aytdilar. U: "YAna kim?" - deb so'radi. Janob Rasululloh: «Onang!" - dedilar. U: "Yana kim?" - dedi. Janob Rasululloh: "Onang!" - dedilar. U: "Yana kim" - deb so'radi. Janob Rasululloh (bu safar): "Otang!" - deb javob qildilar". Inson uchun dunyoda eng mu'tabar zotlar ota-onasi hisoblanadi. Islom manbalarida ota-onani ulug'lash, ularning xizmatini qilish eng savobli amallardan ekanligi aloxida ta'kidlanadi.

Imom al-Buxoriy "Al-adab al-mufrad" asarida ham farzandning ota-onaga nisbatan munosabatlariga batafsil to'xtalib o'tadi, jumladan, shunday deyiladi: Abdulloh ibn Abbosdan rivoyat qilinadi: "Qaysi bir musulmon farzandi savob umidi bilan ertalab ota-onasini ziyorat qilsa, Alloh taolo unga jannatdan ikkita eshik ochadi. Agar ulardan bittasini ziyorat qilsa, unga jannatning bir eshigini ochadi. Bola ota-onasidan qaysi birini xafa qilsa, uni rozi qilmaguncha Alloh taolo undan rozi bo'lmaydi" deydilar. SHunda bir kishi «Agarda ota-onalar bolaga zulm qilsa, bola nima

qilishi kerak?" - deb so'radi. Abdulloh: "Agar ular bolaga zulm qilsalar ham bola ularni ranjitmasligi kerak", - dedilar.

Ayni paytda ota-onaning haqqini ado etish har bir inson farzandi uchun ham farz, ham qarz sanaladi. Bu borada Imom al-Buxoriy hazratlari keltirgan quyidagi hadislar ibratlidir:

Abu Xurayra (r.a.) aytadilar: Rasululloh: "Bolaning otasi birovning quli bo'lgan bo'lsa, uni xo'jasidan sotib olib ozod qilmaguncha, uning haqqini ado qilgan bo'lmaydi", dedilar.

Abu Burda ibn Abi Muai al-Ash'ariyning aytishlaricha, Abdulloh ibn Umar bir yamanlik odam o'z onasini opichlab, xonai Ka'bani tavof qildirib yurganini ko'rdilar. U odam quyidagi baytni ohang bilan uqirdi:

Onai zorim uchun buynimni eggan tevaman,

Tevaga mingan onam horsalar ham men charchamam.

U shuni o'qib turib Abdullohga qaradida, "ey Abdulloh ibn Umar, mana shu xizmatim bilan men onamning haqqini ado qila olmadimmi?" - deb so'radi. "Yo'q, bu xizmatim seni tug'ish vaqtida onangni qiynab turgan tulgoqlarining bittasiga ham barobar emas", dedi. Keyin Abdulloh ibn Umar xoqnai Ka'bani tavof qildilar va maqkomi Ibroximga borib ikki rakat namoz o'qib olib menga qarab: «Ey, Abu Musa al-Ash'ariyning o'g'li! Mana shu yerda o'qiladigan ikki rakat namoz o'zidan ilgarigi gunohlariga kafforot bo'ladi", - dedilar.

Abu Murra aytadilar: "Marvon ibn al-Hakam Madinadan biror joyga safarga ketganda o'z o'rniga Abu Xurayrani qoldirib ketardi. Abu Xurayra Zul-Xulayfada turib, o'zlari bir xonada, onalari boshqa xonada yashardi. Abu Xurayra qachon o'z xonalaridan tashqariga chiqadigan bo'lsalar, onalarining eshigi oldiga kelib salom berardilar-da: "Meni yoshligimda tarbiyat qilganingiz uchun sizga Alloh Taoloning rahmati bo'lsin", - der edilar. Onalari ham u kishining salomlariga javob qaytarib: "Katta bo'lganingda menga yaxshilik qilayotganing, roziligimni olayotganing uchun senga ham Alloh Taoloning rahmati bo'lsin", - der edilar. Abu Xurayra tashqaridan qaytib kelganlarida ham ona-bola o'rtasida shu muomala takrorlanardi".

Abdulloh ibn Amr ibn al-Os (r.a.) aytadilar: bir kishi Rasululloh huzurlariga hijrat qilmok uchun bay'at qilishga keldi. Ammo ota-onasi uning ketishiga rozi bo'lmay, xafalikdan yig'lab qolgan edilar. Shunda Rasululloh: "Sen hozir ota-onang oldiga bor! Hijrat qilaman deb ularni xafa qilganingdek, endi hijrat qilmaydigan bo'ldim, deb ularni xursand qil", - dedilar.

Gunoxlarning eng kattasi ota-onaga oq bo'lib, ularning dilini ranjitishdir. Buyuk muhaddis insonlarni bundan qaytarib, Rasulullohning saxix hadislarini keltiradi:

Abu Bakr (r.a.) aytdilar: "Rasululloh: "Men sizlarga gunoxlarning eng kattasini aytib beraymi?" - deb uch marta so'radilar. Saxobalar: "Ey Rasululloh, aytib bering", - deyishdi. "Alloh Taolaga shirk keltirish va ota-onaga oq bo'lish", - dedilar. Rasululloh shu vaqtda yonboshlab o'tirgan edilar, keyin yaxshilab o'tirib oldilar-da: "Ogoh bo'linglar! SHu katta gunoxlardan biri yolqon gapirmok, tuhmat qilmoqdir", - dedilar. SHu oxirgi so'zlarini shu qadar ko'p takrorladilarki, men ichimda, Rasululloh charchadilar, endi gaplarini tuxtatsalar ham bo'lardi, dedim".

SHuningdek ota-onani so'kmaslik, ularning duosini olish, hattoki, ota-ona vafotidan keyin ham ularga yaxshilik qilish to'g'risidagi hadislarni alohida ta'kidlash joiz.

Abu Usayd (r.a.) hikoya qiladilar: biz Rasululloh huzurlarida edik, shu vaqtda bir kishi: "Yo Rasululloh, ota-onamning hayot vaqtlarida qilgan yaxshiliklarimdan tashqari, ularning vafotidan keyin yana nima qilsam shu yaxshiligim davom etadi?" - deb so'radi. Rasululloh: "To'rtta narsani qilib yursang, ularga qiladigan yaxshiliging davom etavergan bo'ladi. Ularning birlamchisi, ota-onang haqiga duo qilasan va gunoxlarini kechirmakni Alloh Taolodan suraysan, ikqilamchisi, ularning nasixat va shar'iy vasiyatlarini amalga oshirasan, uchlamchi, ularning do'stlarini hurmatlaysan va to'rtlamchi, qavm-qarindoshlar bilan ular tufayli qaror topgan qarindoshlik aloqalarini uzmayasan", - dedilar.

Abu Xurayra (r.a.) aytdilar: "Kishi o'lgandan keyin nima uchundir uning nufo'zi ko'tarilib qoladi. Shunda u taajjublanib: "Ey rabbim! Bu darajamning ko'tarilishi nimadan hosil bo'ldi?" deb suraydi. Alloh Taolo tomonidan: "Ey bandam,

orqangda qolgan bola-chaqalaring men uchun qilgan istig'forlari natijasidir", - deyiladi.

Imom al-Buxoriy "Adab" kitobida qarindoshchilik munosabatlarining eng nozik nuqtalari xususida so'z yuritib, uni Rasululloh rahm deb ta'rif bergan hadislarda ko'rsatib bergan:

Anas ibn Molik (r.a.) aytdilar: Rasululloh (s.a.v.): "Rizqi keng va farovon bo'lishini va hayoti uzoqqa borishini yaxshi ko'radigan kishi qarindoshlaridan o'zini uzmasin", - dedilar.

Abdulloh ibn Umar (r.a.) aytdilar: "Kim Alloh Taolodan qo'rqsa va qavm-qarindoshlariga yaqindan yondashsa, ajali ta'xir qilinadi (ya'ni, umri uzok bo'ladi), moli ko'payadi va ahli ayollari uni yaxshi ko'radigan bo'ladi", - dedilar.

Insonlarning bir-biriga mehr-muruvvat, rahm-shafqati tufayli ular orasida do'stlik rishtalari bog'lanadi. Islom manbalarida rahm qilmaydigan kishi qattiq qoralanadi.

Rasululloh (s.a.v.): "Silai rahm qilmaydigan kishi jannatga kirmaydi", - dedilar.

Said ibn Sam'on (r.a.) aytdilar: Men Abu Xurayraning yosh bolalar va aqli yetuk bo'lmagan, yengil tabiatli kishilarning amirlik mansabida bo'lib qolishlaridan panox so'rayotganlarini eshitdim. Ibn Xasan al-Juxani Abu Xurayradan "Buning alomati nima?" - deb so'raganlarida, Abu Xurayra: "Buning alomati - silai rahmning uzilishi, to'g'ri yo'lga boshlovchi kishiga itoat qilinmay, egri yo'lga boshlovchiga itoat qilinishi», deb javob berdilar.

"Adab" kitobida bundan keyingi mavzu sifatida bolalar to'g'risidagi hadislar keladi. Avvalo, qiz bolaning huquqlari va ularning tarbiyasiga oid Rasululloh so'zlari ifodalanadi.

Akaba ibn Omir (r.a.) aytdilar: men Rasulullohdan: "Kimda uchta qiz bo'lib, ularning tarbiyatidagi qiyinchilikka sabr etsa va topgan molidan ularning kiyim-kechaklarini but qilsa, ular ul kishiga do'zaxdan parda bo'ladi", -degan gaplarini eshitdim, dedilar.

Abdulloh ibn Abbos Rasulullohdan rivoyat qiladilar. Rasululloh: har bir musulmon kishining ikkita qizi bo'lib, ularni yaxshi axlok, yaxshi muomala bilan tarbiyat qilsa, qizlari albatta uning jannatga kirishiga sababchi bo'ladi, - dedilar.

Jobir ibn Abdulloh (r.a.) aytadilar: Rasululloh: "Kimning uchta qizi bo'lib, ularni o'z qo'lida tarbiyat qilib katta qilsa va ularga marhamat nazari bilan qarasa, jannatga kirishi albatta muqarrardir", - dedilar. SHunda bir kishi: "YO Rasululloh! Uning qizi ikkita bo'lsachi?" deb so'radi. "Ikkita bo'lsa ham", - dedilar.

Farzandlarga yoshligidanoq odob-axloq o'rgatish, ularni doimo yaxshilikka da'vat qilish ota-onaning burchi ekanligi uqtiriladi:

Namir ibn Avs aytishlaricha, o'tmish kishilar bolalarining solih-qobil bo'lishlari Alloh Taoloning tavfiqi bilan bo'ladi, ammo ularga odob-axloq o'rgatish otalarining vazifasidir, der ekanlar.

Bashir ibn Sa'd (r.a.) o'z o'gillari Nu'mon ibn Bashirni ko'tarib Rasululloh (s.a.v.) ho'zurlariga keldilar-da: "YO Ra-sululloh! Men shu o'g'lim Nu'monga falon-falon narsalarni berdim, siz shunga guvoh bo'ling", - dedilar. SHunda Rasululloh: "Hamma bolalaringga ham shunday narsalarni berding-mi?" - deb so'radilar. Bashir: "Yo'q, faqat Nu'monning o'zigagina berdim", - degan edilar, Rasululloh: "SHunday qilgan bo'lsang, men bunga guvoh bo'la olmayman, boshqa odamlarni guvoh qil!" - dedilar.

Keyin: "O'zingning farzandlaringning hammasi senga bir xilda yaxshilik qilishlarini xohlaysanmi?" - dedilar. U kishi: "Albatta, shunday bo'lishlarini xohlayman", - degan edilar, Rasululloh: "Unday bo'lsa, Nu'monning o'zigagina berib, boshqalarini maxrum qilishing durust emas", - dedilar.

Imom Buxoriy hazratlarining buyukligi shundaki, ular hadislar to'plab, ularni kitob holiga keltirganda, mavzularning davomiyligi, izchilligiga alohida e'tibor berganlar. Ayniqsa, "Adab" kitobida bu holatni yanada yaqqolroq ko'rish mumkin. SHunday qilib, navbatdagi mavzu qushnichilik munosabatlariga bag'ishlangan. Jumladan, avvalo, qo'shni haqqiga to'xtaladigan bo'lsak:

Xazrati Oisha aytadilar: Rasululloh (s.a.v.): "Hazrati Jabroil qo'shni haqiga rioya qilish to'g'risida menga shu qadar ko'p vasiyat (topshirik) qildilarki, men uni hatto molimga ham merosxur qilib kuysalar kerak deb uyladim", - dedilar.

Abu Shurayx al-Xizoiy (r.a.) aytadilar: Rasululloh: "Har kim Alloh Taologa va qiyomat kuniga ishonsa, qo'shnisiga yaxshilik qilsin, mehmonini hurmat qilsin va yaxshi-shirin so'zli bo'lsin. Agar aytadigan yaxshi so'zi bo'lmasa, unda gapirishdan tilini saqlasin", - dedilar.

Qo'shnilarga hadya ulashish borasidagi hadislar ham ibratlidir:

Hazrati Oisha aytadilar: "Men Rasulullohdan: "Yo Rasululloh! Mening ikkita qo'shnim bor, hadyani shulardan qaysi biriga berishim kerak?" - deb so'raganimda, Rasululloh: "Qaysi bittasining eshigi senga yaqinrok bo'lsa, o'shanga berasan", - dedilar.

Ayni paytda yomon qo'shnidan panox tilashish xususida hadislar mavjud:

Abu Xurayradan rivoyat qilindi: Rasulullohning qilib yuradigan duolaridan biri shunday edi: "Ey Alloh! Men yashaydigan yerdagi yomon qo'shnining yomonligidan panoh berishingni so'rayman, chunki foniy dunyodagi yomon qo'shnidan ko'chibgina qutulishing mumkin".

Abu Xurayra aytadilar: Rasululloh: "Qaysi bir kishining yomonligi va ozor berishidan qo'shnisi tinchimaydigan bo'lsa, u jannatga kirmaydi", - deganlar.

Navbatdagi mavzuda yetim bolalarga mexr-shafqat qilish haqida so'z boradi:

Murra al-Faxriy ibn Amr (r.a.) Rasululloh (s.a.v.)dan rivoyat qiladilar: Rasululloh: "Etim bolaning tarbiyatini o'z ustiga olgan kishi jannatda men bilan shunday yaqin bo'ladi", - deb o'rta barmoqlari bilan ikkinchi barmoqlari (ibxomlari)ni ko'rsatdilar.

Asmo ibn Umayd (r.a.): "Qo'limda bir yetim bola bor", - deb ibn Siringa aytdi. SHunda ibn Sirin: "O'z bolangga qanday qaraydigan bo'lsang, qo'lingdagi yetimga ham shunday qaragin. O'z bolangni nima uchun uradigan bo'lsang, yetim bolani ham shuning uchun ur!" - dedilar.

Farzandi o'lgan kishining fazilati to'g'risida ham hadislar borki, unda insonga kuchli iroda va sabr-toqat talab qilinadi. Xususan, bu xaqda hadislarda shunday

berilgan: Jobir ibn Abdulloh aytadilar: Rasululloh: "Kimning uchta bolasi vafot etsa, bu Alloh Taoloning irodasi deb sabr qilib va shu sabri uchun Allohdan savob umid qilsa, u kishi jannatga kiradi", - deganlarida, biz: "Yo Rasululloh! Agar uning ikkita bolasi o'lib, shunga sabr etgan bo'lsachi?" - deb so'radik. Rasululloh: "Ikkita bo'lsa ham", - dedilar. SHunda Jobir ibn Abdullohga: agarda Rasulullohdan: "Bitta bolasi o'lgan bo'lsachi?» - deb so'raganda, Rasululloh: "Bitta bolasi o'lgan bo'lsa ham," - dedilar.

"Adab" kitobida kishining birodariga va o'zgalarga yaxshilik qilishi to'g'risida ibratli hadislar berilgan: Chubaysa ibn Burma al-Asadiy (r.a.) aytadilar: men Rasululloh huzurlarida edim. Shu paytda Rasululloh: "Bu dunyoda yaxshilik qilgan kishilar oxiratda yaxshilikka erishadilar va shariatda yomonlik deb sanalgan ishlarni qiluvchilar oxiratda yomonlikka duchor bo'ladilar," - dedilar.

Pag'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) go'zal axloq, yuksak odob soxibi bo'lganligi bois ham ushbu mavzularga alohida e'tibor berganlar. Imom Buxoriy ham aynan shu mavzularga oid hadislarini tulig'icha to'plashga va o'zining asarlariga kiritishga harakat qilgan. Odob mavzusidagi keng qamrovli hadislar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yuqotgan emas. Ular insonlarni tom ma'noda odobli bo'lishga, ota-ona, qarindosh-urug', yoru birodar, umuman, barcha pok niyatli insonlarga mehrli, shafqatli, saxovatli bo'lishga undaydi.

I. 2. Abu Mansur Moturidiy ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari

Movarounnahr dunyo tamaddunining yirik markazlaridan hisoblanadi. Jumladan, bu ko'xna zaminda islom dini bilan bir qatorda boshqa dinlar va madaniyatlar emin-erkin faolit olib borgan. O'lkaga islom dinining kirib kelishi qadimdan mavjud ilm-fan, madaniyatni yanada yuksaklarga ko'tardi. Xususan, islom dini bilan bog'lik ilmlar, tafsirshunoslik, hadisshunoslik, fiqh, kalom va boshqa kator soxalar o'zining yangi, yanada yuksakrok taraqqiyot bosqichiga o'tdi. Mana shunday soxalardan biri aqida - kalom hisoblanadi. Butun islom olamidagi ikki yirik kalom maktabining biri - moturidiya aynan shu zaminda yuzaga keldi. Buyuk mutakallim,

alloma Abu Mansur Muhammad b. Muhammad Moturidiy ushbu kalom maktabiga asos soldi.

Moturidiyning tug'ilish sanasi haqida manbalarda turlicha ma'lumotlar keltiriladi. Mana shunday ma'lumotlardan biri sifatida 870 yil kabul qilingan. SHunga ko'ra yurtimizda 2000 yil uning 1130 yilligi keng nishonlandi. Samarqandda uning maqbarasi qayta tiklandi, yangi me'moriy obida yaratildi, qator xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazildi, kitoblar chop etildi.

Moturidiy butun umrini asosan Samarkandda o'tkazdi. O'z davridagi islom ilmlariga oid asar, manbalarni, ayniqsa, aqidaviy masalalarni chuqur o'rgandi. CHuqur tafakkur, ulkan salohiyat, keng qamrovli bilim yangi aqidaviy yo'nalishga asos solinishiga olib keldi. Moturidiyning shunday yuksak ilmiy darajaga erishishida ustozlarining xizmatlari katta. Jumladan, unga yetuk olim Abu Nasr Axmad Iyodiy, Abu Bakr Jo'zjoniylar ustozlik qilganlar. O'z navbatida Moturidiy ham Abu Axmad Nasr ibn Axmad Iyodiy, Abo'l'xasan Ali Rustug'foniy, Abdulkarim Pazdaviylarga aqida, kalom, islom ilohiyoti asoslarini o'rgatgan.

Ilmiy tadqiqototlar Moturidiyning o'n beshga yaqin asarlar yaratganligini ko'rsatmokda. Ular jumlasiga «Kitob ta'vilot al-Qur'on» yoki «Ta'viloti axlis-sunna», «Kitob at-Tavxid», «Kitob maaxaz ash-sharia», «Kitob al-jadal», «Kitob al-usul», «Kitob bayan vaxmil-mu'tazila», «Kitob rad ava'-ill-adilla lil-Ka'biy», «Kitob ar-radd alal-K.aromita», «Kitob radd al-usul al-hamsa» kabi asarlari kiradi.

Moturidiyning yuqoridagi katta ilmiy ahamiyatga ega asarlari barcha musulmon dunyosiga keng tarqalgan. SHu bois, u hayotlik chog'idayoq «Imom ul-huda» - «Hidoyat yo'liga boshlovchi imom», «Kudvatu axlis-sunna» - «Axli sunna peshvosi», «Kole'u abobilil-fitna val-bid'a» - «Fitna va bid'at to'dalarini ko'poruvchi», «Imom ul-mutakallimin» - «Mutakallimlar imomi», «Musaxxixu akoid il-muslimin» - «Musulmonlarning aqidalarini tuzatuvchi, islox qiluvchi» kabi sharaflil nomlarga sazovor bo'lgan.

Moturidiy ta'limoti va asarlarining o'z davridagi, shuningdek, hozirgi kundagi ahamiyati juda beqiyos. CHunki hijriy ikkinchi asrga kelib islom ahli orasida turli

xildagi kelishmovchiliklar ko'zga tashlanib qolgan edi. Mana shunday sharoitda xorijiyalar, mu'taziliylar, shialikka mansub sabaiya, kaysoniya, mugiriya, ja'fariya, imomiya, zaydiya, ismoiliya, nazzoriya kabilar islom aqidasi turlicha talqin qila boshladilar. Bu kabi firkalarni «adashgan firklar» deb ataganlar va ularning diniy siyosiy iddaolari natijasida to'qnashuvlar ruy bergan, musulmonlar qurbon bo'lganlar. Moturidiy mana shunday ziddiyatli sharoitda yashasa ham, o'zining bilimi, tafakkurini islom dinining sofligini saqlab qolishga qaratdi. Jumladan, u islom aqidasi asoslarini tartibga keltirdi, isloh qildi, tushunarli tarzda aqida asoslarini bayon qilib berdi. SHu tariqa turli adashgan firqalarning ilmiy asossiz ekanligi va ular ko'tarib chiqayotgan da'volarning asl islom mohiyatiga mos kelmasligini klassik manbalar asosida ko'rsatib berdi.

Moturidiy ta'limotini yaqqolroq tasavvur qilish hamda islom aqidasi mu'tadilligini tushunish uchun ayrim dalillarni keltirish mumkin.

Jumladan, mu'taziliylar ma'lumotlarni qabul qilishda faqat aqlga suyanish kerak desalar, moturidiylar aql bilan naqlni qo'shib foydalanish zarur deb biladilar;

- Mu'taziliylar banda o'z fe'l va harakatlarini o'zi yaratadi, desalar, moturidiylar bandaning yaxshi, yomon fe'l va harakatlarini Alloh yaratadi, deydilar;

- Mu'taziliylar Allohni oxiratda ko'rish mumkin emas, deydilar. Moturidiylar oxiratda, jannatda mu'minlar Allohning diydorini ko'radilar, deb aytadilar;

- Mu'taziliylar jannat bilan do'zaxni Alloh hanuz yaratmagan deydilar. Moturidiylar ular yaratilgan, hozirda mavjuddir deydilar;

- Mu'taziliylar «Qabrda azob ham, rohat ham yuq. Oxiratda tarozu, Pulsirotni ko'prigi, havzi Kavsar, shafolat kabi narsalar ham bo'lmas» - deydilar. Moturidiylar ularni hak deb biladilar;

- Mu'taziliylar imonning shartlari uchta, ya'ni til bilan iqror, dil bilan tasdiq, amal bilan tasdiq va amal bilan ijro etish desalar, moturidiylar imonning shartlari ikkita, ya'ni payg'ambarimiz keltirgan barcha xabarni til bilan iqror etish va dil bilan tasdiqlash. Amal xoh savob bo'lsin va xoh gunoh, ularning o'rni boshqa deb ta'rif etadilar;

- Gunoxi kabira qilgan musulmon imondan chiqadi, lekin kufrga doxil bo'lmay arosatda qoladi, deb mu'taziliylar aytgan bo'lsa, moturidiylar kabira sohibi mo'minligicha qoladi, fosiq bo'lsada kofir bo'lmaydi. Tavbasiz vafot etgan osiy bandalar hukmi Allohning xohishiga havola deydilar;
- Mukallid, ya'ni boshqalarga taqlid qilib, o'zini musulmon sanab yuruvchilar imoni mu'taziliylar nazdida maqbul emas. Moturidiylar esa uni makbul sanaydilar;
- Mu'taziliylar va ash'ariylar imon ko'payib-ozayib turadi desalar, moturidiylar imon yaxlit narsa, u ko'paymaydi va ozaymaydi, balki uning nuri goxida ko'payib, goxida xiralashib turadi deydilar.

Moturidiy ta'limotining va ayniksa ilohiyotining asoslari uning davrimizgacha yetib kelgan «Kitob at-Tavxid» -«Allohning yagonaligi haqidagi kitob»ida aks ettirilgan. Ushbu kitob o'z hajmi, fikr boyligi va uslubiga ko'ra, Movarounnahrda o'zidan avval iloxiyot sohasida yaratilgan jami asarlardan ustun turadi. Bu asar islomning asosiy aqidalarini jamlab, ularga qulay ta'riflar berish bilan cheklanmaydi. Uning maqsadi - butun islom iloxiyotini taftish etish va uni inkor etib bo'lmas dalillardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida tan olish lozimligini ko'rsatib berish.

«Kitob at-Tavxid» doirasiga kiritilgan hamma mavzular ham birdek qimmat kasb etmaydi, zero, ularning bayoni va taxlili o'zining qiska yoki davomlilik bilan bir-biridan ancha farq qiladi. Asarning maqsadlari bayon etilgan muqaddima qisqartirilgan ko'rinadi. Bevosita muqaddimadan keyin kelgan va kalomning dastlabki katta muammosi - dunyoning foniyligi va ontologik tuzilishiga bag'ishlangan bir necha varaqdagi muloxazalar yanada ixchamroq ko'rinadi. SHundan so'ng bayon usuli ancha batafsillik kasb etadi. Bu, masalan, Alloh tavsifi va yagonaligining himoyasi masalasi markaziy o'rinni egallagan keyingi parchada, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan keyingi fasllarda, jumladan, pag'ambarlar ta'siri, gunoh va jazo, shuningdek, imonni to'g'ri tushunish haqida so'zlar borganda ham dalillar g'oyat sinchkovlik bilan va aniq ifoda etiladi.

Muammolarning bunday izchillikda kelishi matnga xos xususiyat bo'lmay, u yoki bu darajada islom risolalarining odatiy tuzilishiga muvofikdir. Moturidiy ayrim

parchalar ichida rioya qilgan tartib ham kalom ilmida qabul qilingan muayyan nizomga asoslanadi. Ba'zi o'rinlarda Moturidiyning muloxazalari qaytariklar evaziga cho'zilib ketgan va ba'zi joylarda u deysinib qolgan. Buning sababi, muallif o'zining tobora tezlashayotgan bayoniga ikkita sekinlashtiruvchi unsur qo'shganidadir.

Ulardan birinchisi va eng ko'p uchraydigani shundaki, muallif ko'rib chiqilgan muammoga yana kaytib, boshqa raqiblarining ismlarini nomma-nom ko'rsatib, munozaraga kirishadi. YA'ni, Moturidiy to'g'ri deb hisoblagan yakuniy hukm uquvchiga allaqachon ma'lum: ammo bildirilishi mumkin bo'lgan e'tirozlardan himoya qilinadi hamda karama-qarshi hukm qabul qilingan taqdirda yuzaga keladigan xato va zid-diyatlarni kursatish yo'li bilan yanada tasdiqlanadi. SHu kabi muloxazalar misolida islom iloxiyotining dialektik tuzilishi yanada aniq namoyon bo'ladi va uning, o'z navbatida, muallifimiz uslubigagina emas, balki kalomga xos umumiy xususiyat ekanligi bizga ma'lum.

Ikkinchi unsur, aksincha, fakat «Kitob at-Tavxid»ga xos. Bu o'rinda butun matn davomida tez-tez uchrab turadigan bayon va dalillarning ma'lum o'rinlarda qaytarilishi ko'zda tutilmokda. Moturidiy tomonidan yo'l quyilgan xato emas, balki kitobning o'ziga xos uslubda yoritilganini bildiradi. Ammo buni aniqlash uchun bunday qaytariklarni shunchaki kurib chiqishning o'zi kifoya qilmaydi. Buning uchun ko'prok «Kitob at-Tavxid» asarining umumiy ko'rinishini tiklash lozim bo'ladi, shunda ichki tuzilishi Moturidiy tomonidan qanday tasavvur etilgani va ishlab chiqilganini ko'rish mumkin.

«Kitob Ta'vilot axli sunna» asari Moturidiyning ikkinchi yirik asari xisoblanadi. Abo'lyusr Pazdaviyning ta'-kidlashicha, «Ta'vilot» o'z soxasida misli yuk asardir, Moturidiygacha bo'lgan mualliflar tomonidan bu darajadagi birorta asar yaratilgan emas va bu soxadagi birorta asar uning darajasiga yeta olmaydi. Ushbu asar o'z davridayok ko'plab yetuk olimlarning diqqatini tortgan. Jumladan, Alovuddin Muhammad b. Axmad as-Samarkandiy (vaf. 587F1191) asarga kattagina sharx yozgan.

«Ta'vilot» asari hozirgi kunga qadar kulyozma xolida kolib kelmokda. Uning ayrim kismolari, jumladan, Kur'on-dagi Fotixa va Bakara surasining 141-oyatigacha

bo'lgan kismi bir jild qilib Koxirada nashr etildi. SHuningdek, Dakka-da 1981 yili asarning boshlanish kismi chop etilgan. Umu-man, «Ta'vilot axli sunna» Kur'on tafsirlarining eng kim-matlisi va diqqatga sazovori xisoblanadi.

Al-Moturidiy Allohning yaxshilik panoxi ekanligi, ki-shilarning ezgulik yo'lida birlashib, yakdil jamoatchilik fikri shakllanishiga xalakit berishidan yuqori turishi, aksincha, uning aynan yaxshilik qilish yo'lidagi jamoatchi-lik fikriga yo'l berishi ularga savob yozilishini asoslab beradi. Zero, Moturidiy fikriga ko'ra, kishilarning yax-shilik yo'lida birlashishlari ularning moxiyat mazmunini tashqil etadi. Alloh kishilarga e'tiqod etish, ixtiyor qilish va to'g'ri yo'lda faoliyat, amallar yuritish imkoniyatini ber-gan. Kishilardan biror bir imkoniyatning olinishi, ularni e'tiqod va amal majburiyatlaridan xalos etadi. Demak, Moturidiy fikriga ko'ra, kishilar mustaxkam e'tiqod, asoslangan ixtiyor, iroda birligi negizlarida to'g'ri yo'lga ki-radilar. Moturidiy Abu Xanifa asoslagan nazariya asosida barcha amallarni, xususan, me'yorlar, e'tiqodlar, qoidalar, faoliyatlarni Alloh yaratadi, ammo ularning barchasini inson tanlaydi va o'z ixtiyori bilan amalga oshiradi, deb karay-di. Tanlash va ixtiyor qilish jarayonlarida insonning mas'-uliyati, e'tiqodiy javobgarligi namoyon bo'ladi.

Agar insonlar yaxshilik yo'lida birlashsalar, ular Yaratganning qullab-quvvatlashiga umid qilsalar bo'ladi, ya'ni «Tavfik» kuchga kiradi, agar ular yomonlik yo'lida birlash-salar, Alloh o'z ximoyasidan bunday kishilarni chikarib tashlaydi, ya'ni «Xizlan» kuchga kiradi deb ta'kidlaydi.

Moturidiy jabariylarning «insonning hamma amallari oldindan uning taqdirida yozib kuyilgan, shu boisdan u o'zi qilayotgan ishlarga mas'ul emas», degan nuktai nazarini ham, qadariylarning «Alloh inson faoliyatlari va amallariga ximoyachi emas», degan nuktai nazarini ham asosli tankid qilib, inson yaxshi va yomon amallarni o'z erkiga ko'ra tanla-shi va bu yo'lda Allohning madadini olishi nazariyasini il-gari so'radi.

Umuman, Abu Mansur Moturidiyning shaxsi, ilmiy ma'-naviy merosiga o'zok muddat e'tibor bermay kelindi. «Pekin bu benazir mutakallim o'z davridayok islom aqidasi bobida katta olamshumul vazifalarni amalga oshirgan. U islomni turli zararli

karashlardan, yot ta'limotlardan sakladi. O'z asarlarida mu'tadil islomni yoklab chikdi; islomni bo'zish-ga harakat qilgan okimlarga zarba berdi. SHu nuktai nazar-dan ham Abu Mansur Moturidiy hayoti, uning chukur ilmiy asarlari bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini yukotgan emas.

I. 3. Maxmud az-Zamaxshariy ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari

Xorazm voxasida azaldan jaxon ilm-fani, madaniyati rivojiga ulkan xissa kushgan, ilm-fanning turli soxalarida samarali ijod qilgan, dong'i butun dunyoga tarqalgan ko'plab allomalar yetishib chikkan. Bu tabarruk zaminda tavallud topgan buyuk allomalardan biri Abo'l Kosim Maxmud Zamaxshariydir.

Olim xijriy 467-sana rajab oyining yigirma yettinchi-sida - chorshanba kuni (melodiy xisobda 1075 yilning 19 martida) Xorazmning katta kishloklaridan biri Zamaxsharda tavallud topgan. U Makkada yashagan paytda iskandariyalik bir shogirdi, «Al-Akd as-samiyn fi ta'rix al-badal al-amiy» nomli tarixiy asarning muallifi SHaxobuddin Axmad ibn al-Xusayn al-Molikiyga yo'llagan maktubida o'zi haqida «Men Maxmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Axmad al-Xorazmiyman, keyin az-Zamaxshariyman. Xorazmning bir kishlog'iga (Zamaxsharga) mansubman. Zamaxshar tugilgan yurtimdir», -deb yozgan.

Zamaxshariyning otasi unchalik badavlat bo'lmasa-da, o'z davrining savodli, ancha takvodor, diyonatli kishisi bo'lgan. Aksar vaktini Kur'oni karim tilovati-yu, toat

ibodat bi-lan utkazgan. Zamaxshardagi bir masjidda imomlik ham qil-gan. U xulki-atvori yaxshi, shirinsuxan va goyatda muruvvatli kishi bo'lgan. Bu fazilati bilan el orasida katta obru-e'ti-bor topgan.

Uning onasi ham takvodor va diyonatli ayollardan xisob-langan. Asarlaridan birida o'z volidasi haqida keltirgan ushbu ma'lumotlar onasining okkungilligidan dalolat be-radi va bu xakda u shunday yozadi: «YOshligimda bir voqea bo'lgan edi. Kunlardan bir kun bir chumchukni tutib olib oyoklarini ip bilan maxkam bogladim. Birok chumchuk kulimdan chikib ketib, devor orasiga (inga) kirib berkindi. Men uni indan tortib chikarib oldim. Oyogiga boglangan ipning sikishi na-tijasida qo'shning oyogi o'zilib (kesilib) tushdi. Bundan onam qattiq xafa bo'lib "Sening bu qilgan ishingga Allohning albatta jazosi bo'ladi deb koyidilar".

Ma'lumki, Zamaxshariyning bir oyog'i cho'loq bo'lib, u butun umr yog'och oyoqda yurgan. Uning chulokligi sabablari haqida yozganlarida tarixchilar har xil rivoyatlar keltirishadi. SHulardan biri onasining kargishi bo'lgan, deb ta'kidlay-dilar. Ana shu ma'lumotlarga tayanib aytish mumkinki, olimning yoshlik yillari diniy, takvodor oilaviy muxitda shakl-lanib, kamol topgan. Bunga kushimcha nazmiy asarlaridan birida ota-onasiyu, oila a'zolaridan birortasi ham na sharobu, na boshqa ichimlikni mutlako iste'mol qilmaganini aloxida ta'kidlashi ham bu fikrimizni yanada oydinlashtiradi. Aftidan, Zamaxshariyning otasi serfarzand bo'lgan. CHunonchi, u o'z qasidalaridan birida farzandlari ko'p, oilasi katta bo'lgani uchun otasi ro'zgor tebratib, tirikchilik yo'lida tinmay mehnat qilgani haqida yozadi.

Zamaxshariy dastlabki bilimni ona yurti Zamaxsharda o'z davrining ilmlı kishilaridan sanalgan otasidan oldi. Bir oyogi cho'loq bo'lib qolgach, otasi og'ir mehnatga yaramaydi, deb tikuvchilik hunarini egallasin, degan niyatda uni bir kiyim tikuvchi ustaga shogirdlikka bermoqchi bo'ladi. Ammo yoshligidan ilmga kuchli havasmand Maxmud otasidan o'zini madrasaga o'qishga yuborishini iltimos qiladi. O'g'lidagi ilmga zur ishtiyoq, havasni sezgan ota uning iltimosini bajo keltiradi. Ana shu paytdan boshlab yosh Zamaxshariy ilm-fanning turli soxalari bilan qiziqib, o'z tengqurlari orasida zo'r qobiliyati va katta iste'dodini namoyon qila boshlaydi.

Madrasada o'qiladigan ilmlarni, ayniksa, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlar majmuasini to'liq egallaydi. SHu bilan bir qatorda o'sha davrda ilm ahllari orasida muhim hisoblangan hattotlik san'ati siru asrorlarini ham mukammal o'zlashtirib oladi.

Maxmud Zamaxshariy bizga ulkan ilmiy meros qoldirgan. Hozirga qadar olim qalamiga mansub 66 ta asar borligi aniqlangan. Allomaning eng mashhur asarlari sifatida «Al-Kashshof», "Al-Mufasssal", "Atvok o'z-zaxab", "Makomot", "Ra-bi' ul-abror va nusus ul-axyor", "Mukaddamat ul-adab", "Al-Foik fi g'arib il-hadis", "Asos ul-baloga" larni keltirish mumkin. Zamaxshariy o'zok muddat Baytulloxda yashagani hamda o'zining mashxur «Al-Kashshof» asarini yaratgani uchun "Jo-rullox" ya'ni "Allohning qo'shnisi" unvoniga, arablar va boshqa millatlarga arab tilidan ta'lim bera oladigan darajada kuchli ilmiy saloxiyatga ega bo'lganligi sababli "Ustoz ul-arab val-ajam" ya'ni "Arablar va arab bo'lmagan millatlarning ustoz" kabi sharaflil nomlarga sazovor bo'lgan.

Ma'lumki, Maxmud Zamaxshariy mu'taziliya okimiga mansub bo'lgan, lekin diniy ulamolarimizning fikricha, umrining oxirida axli sunna val-jamoa e'tiqodiga utgan. Zamaxshariy mazxab borasida xanafiylik mazxabiga alohida e'tibor beradi. Uning ilmga tayanadigan, mu'tabar mazxablardan ekanligiga ishora qiladi, yuqori baholaydi. Jumladan, olim o'zining «Ruus ul-masoil al-xilofiya bayn al-xanafiya vash-shofi'iya», ya'ni «Xanafiy va shofiyy mazxablari o'rtasidagi asosiy qiyosiy masalalar» asarida yuqoridagi mazxablar o'rtasida hukmida ixtilof bo'lgan 406 masalani bayon qiladi. E'tiborga loyiq jihati shuki, Zamaxshariy hanafiylari dalilini «bizning dalilimiz» deb zikr qiladi. Jumladan, «Navobig ul-kalim» asarida quyidagicha yozadi: «Alloh taolo yeru zaminni baland va ulug'vor tog'lar bilan bezaganidek, dini islomni ham Imom A'zam Abu Xanifa (r.a.) ilmlari bilan yashnatib, baraka berdi»;

«Saxovat va xalimlik Xotamtuyga mansubdir, din bo'lsa, dini islomdir, ilm esa Imom A'zam Abu Xanifa Nu'mon ibn Sobit (r.a.) ilmidir»;

«Imom A'zam Abu Xanifa Nu'mon ibn Sobit (r.a.) hazratlarining mazhabiga mansub bo'lgan mu'tabar, qadrli va e'tiborli imomlar dini islomning tizginlaridir».

Maxmud Zamaxshariy o'z asarlaridagi tasavvufiy g'oyalarda barkamol inson, uning komillikka yetishishiga aloxida e'tibor beradi. U inson kamolotidagi eng asosiy poydevor ilm deb hisoblaydi. Ilm insonlarga hayotda o'z o'rinlarini topishiga yordam beradi, noxush holatlardan asraydi, deb uqtiradi. Jumladan, «ilmli bo'l yoki ilmga tayanib ish tutadigan bo'l, loaqal ilmni tinglab eshitadigan bo'l, biroq to'rtinchisi bo'lma, chunki kasodga uchrab halok bo'lasan», deb yozadi Zamaxshariy.

U ilmga ega bo'lib, lekin unga amal qilmaydiganlar albatta zavol topishini ta'kidlamokda. Chunki inson doimo ilm, aqllu idrok bilan ish tutishi lozim.

Zamaxshariy ilmli kishilar, olimlar jamiyatning peshqadam vakillari bo'lib, ular xayrli ishlarga bosh bo'ladilar, deb uqtiradi:

«Eru zaminning ko'rkamligi olimlar bilan bo'lsa, osmonu falakning ziynati esa yuldo'zlar bilandir»; «Lovullab yonayotgan olovni suv uchirgani kabi nodon odamlardan chiqayotgan alangani hakim oqil odamlar so'ndirarlar», deb yozadi olim.

Zamaxshariy insonlarni o'zlari qatori insonlarga nisbatan doimo shafqatli bo'lishga chaqiradi, ularning boshlariga biror-bir musibatli ish tushganda darxol yordam kulini cho'zishga undaydi va «Agar biror qayg'u alam yuz bergani yoki ta'ziyali joyni eshitsang darxol u yerga bor», «Odamlarning xotiri kuchlisi ularning ichidagi eng unutuluvchisidir, kungillarning eng yumshog'i salobatligiyu shafqatlisidir» deydi.

Maxmud Zamaxshariyning tasavvufiy karashlari aks etgan asarlaridan biri uning «Maqomat» asari xisoblanadi.

«Maqomoti Zamaxshariy» shu vaqtga qadar maxsus tadqiqot etilgan emas.

Maxmud Zamaxshariy o'zining «Maqomat az-Zamaxshariy» asarini xijriy 512 yil rajab oyining boshida yozib tugatgan. Asarning yozilish sabablarini olim asar mukaddimasida bayon qilgan. Ma'lumki, Maxmud Zamaxshariy 512 yil arafasida juda og'ir dardga chalinadi. Kunlardan bir kun u tush ko'radi va tushida: «Ey Abo'l Kosim! Ajal - haqiqatdir va orzu-umidlar esa aldamchidir!» degan ovozni eshitadi.

Kasallikdan tuzalgandan so'ng o'zining «Maqomat» asarini yaratgan. Zamaxshariy aksariyat asarlarini hukmdorlarga atab yozgan, jumladan,

«Muqkaddamat ul-adab»ni Xorazmshox Alouddavla Otsizga, «Maqomat»ni esa Makka amiri Ibn Vaxxosga bag'ishlagan. lekin manbalarda ko'rsatilishicha, hukmdorlardan uning ko'ngli to'lmagan va keyinchalik umuman ularning saroyiga bormaslikka, ularga atab she'r va kasidalar bitmaslikka, mol-dunyo tamasidan voz kechib, butun umrini ilm-fanga bag'ishlashga qaror qiladi.

Maxmud Zamaxshariyning «Maqomat az-Zamaxshariy» asari Makka amiri Abul-Xasan Ali ibn Hamza ibn Vaxxosga tuhfa qilingan. Olimning maqoma janrida kalam tebratishiga uning zamondoshi Haririy tomonidan yaratilgan maqomalar sabab bo'lgan edi. Zamaxshariy Haririy maqomalaridan ilhomlangan bo'lsa ham, lekin ularga ko'r-ko'rona ergashib taqlid qilmadi, balki maqomalariga yangi yo'nalish berib, maqomalarining ilmiy ahamiyatini ko'tardi. Haririy maqomalarining qahramonlari Xoris ibn Hammom va Abu Zayd as-Sarujidir. Haririy maqomalarida maqomalar syujeti mana shu qahramonlarga bog'liq. Ammo Zamaxshariy maqomalarining qaxramoni muallifning o'zidir. Tarkibiy tuzilishi jihatidan Hamadoniy va Haririy maqomalari bir xil, ya'ni roviy tomonidan rivoyat qilinadi. Hamadoniy maqomalarida «haddasana Isa ibn Xishom kola» deb boshlansa, Haririyda roviy Xoris ibn Hammomdir. Zamaxshariy maqomalarida «Ey Abo'l Qosim» deb, o'z-o'ziga xitob qilish bilan boshlanadi. YUqoridagi asarlarning barchasi ellik maqomadan iborat.

«Makomot az-Zamaxshariy» asari ham 50 ta maqomadan tashkil topgan. Bu ellikta maqoma turli mavzularni o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, turli majlislarda, o'tirishlarda pand-nasixat, o'git tariqasida so'zlash uchun kerak bo'ladigan hikmatli so'zlar, badiiy san'atlar, she'riy parchalar, masallar, hikoyatlardan iborat. Maqomalar mazmunlariga ko'ra quyidagicha nomlangan: Maqomat al-maroshid, maqomat at-taqvo, maqomat ar-rizvon, maqomat al-ir'ivo, maqomat az-zod, maqomat az-zuxd, maqomat al-inoba, maqomat al-xazar, maqomat al-e'tibor, maqomat at-taslim, maqomat as-samt, maqomat at-toat, maqomat al-munzira, maqomat al-istiqoma, maqomat at-tayyib, maqomat al-qanoat, maqomat at-tavakki, maqomat az-zulf, maqomat al-o'zlat, maqomat al-iffat, maqomat an-nadam, maqomat al-viloya, maqomat as-silox, maqomat al-ixlos, maqomat al-amal, maqomat at-tavxid, maqomat

al-ibodat, maqomat at-tasabbur, maqomat al-xashiya, maqomat ij-tinob az-zulma, maqomat at-taxajjud, maqomat ad-duo, mako-mat at-tasadduk, maqomat ash-shukr, maqomat al-usuvva, maqomat an-nasx, maqomat al-murokaba, maqomat al-mavt, makomat al-furkon, maqomat naxyu 'an al-xavo, maqomat at-ta-massuk, maqomat ash-shahamat, maqomat al-xumul, maqomat al-azm, maqomat as-sidk, maqomat an-naxv, maqomat al-aro'z, maqomat al-kavofiy, maqomat ad-divon, maqomat ayyom al-arab.

Maxmud Zamaxshariyning «Maqomat az-Zamaxshariy» asari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish uchun uning tarkibiy taxliliga nazar solsak. Birinchi makoma «Maqomat al-maroshid» deb nomlangan. Bu makomada az-Zamaxshariy yaxshilik va yomonlikni bir-biriga takkoslaydi. Uning fik-richa, yaxshilik kancha bo'lsa ham oz. YAxshilik insonni doimo o'ziga jalb qilaveradi. «ekin yomonlik ozgina bo'lsa ham, uning zarari katta, u xaloqatga boshlaydi. Agar inson izzat-ikrom, obru-e'tiborga erishishni xoxlasa, fakat yaxshilik qilishi kerak. Inson hamisha ogoh bo'lishi, ogoh kishigina hidoyatga erishishi mumkin. SHuningdek, inson o'z nafsini jilovlashi kerak. U zalolatga ketgan insonlarni xuddi zaharli ilonga o'xshatadi. Ularning zaharidan hech narsa qutqara olmaydi. Fakat insondagi Allohga bo'lgan taqvogina, ularning zaxri kuchini yuqotadi. Nafslariga kul bo'lgan insonlar haqida fikr yuritib, shunday deydi: ular nafslari deb zalolatga ketadilar. Alloh har bir insonning nolasini eshitadi va ularga najot topish uchun imkoniyat beradi. «ekin ular o'z nafslariga ergashgan xolda to'g'ri yo'ldan adashadilar. Maqoma so'ngida u o'ziga o'zi shunday deydi: «Sen o'zingni ularning ichiga urmagin. Agar sen ularga aralashsang, holingga voy. Sen ulardan yiroqlashsang, Allohning fazli bilan najot topib, o'z niyatingga erishasan».

Taqvo maqomasi esa umrning kiskaligi, u bizning kuli-mizda emasligi, dunyoning zebu ziynatlariga berilib, uni yanada kiskartirmaslikka chakiradi. Bu dunyoning ziynatlari insonni yo'ldan adashtirishini aytib, o'ziga o'zi, agar sen fozil inson bo'lsang, to'g'ri yo'lni tanlab olgin va shu yo'l seni hidoyatga olib borsin, deydi. Uning fikricha, dunyo zebu ziynatlaridan saqlaydigan ustun - bu taqvo ustunidir.

Rizvon makomasida, ajal - haqiqat, orzu xavaslar o'tkinchi narsalardir, deydi olim. Uning fikricha, insonning xayrli ishlari qoladi, yomon ishlar esa o'tib ketadi,

shuning uchun inson savobi kam, gunoxi ko'p ishlarni qilishdan o'zini tiyishi kerak. Sen ikki ish o'rtasida turibsan, birinchisi bir soatlik lazzat, lekin undan keyin afsusnadoomat va baxtsizlik bo'ladi. Ikkinchisi esa bir soatlik mashakkat va lekin undan keyin abadiy baxt-saodat, farovonlik bo'ladi. Jannatdan, Allohning roziligidan kochib, baxtsizlik sari shoshilib, Allohning gazabini keltirib, do'zaxga chopib ke-tishga xech kanday baxona, sabab bo'lishi mumkin emas. Nafsu xavo, obru-e'tiborga bo'lgan muxabbat seni shaxvatning asi-riga aylantirib kuyadi va senga dunyoni bir tip-tinik suvdek kursatadi. «ekin mana shu tinik suv ostida balchik, loyka bor. Sen kurgan go'zallik, jim - jimadorlik ortida, albat-ta, balo bo'ladi. Fakat inson akl-idrokigina uni shu balo-lardan saklab qolishi, bunday ishlardan qaytarishi mumkin.

Maxmud Zamaxshariyning zamon talablariga javob bera oladigan, insonlarni ezgulik, xayrli ishlarga undab, ularni bo'zgunchilik, xasad, yomon ishlardan qaytarishga qaratil-gan asarlaridan biri uning «Atvok o'z-zaxab fil-mavo'iz val-xutab» asaridir. Mirzo YUusufxon Ashtiyoniyning ta'kidlashicha, yuz maqomadan iborat ushbu asarni Maxmud Zamaxshariy Baytulloxni tavof qilgan vaktida yozgan. Unda ham inson tarbiyasi, yetuk komil inson masalasi, jamiyat hayotiga salbiy ta'sir qiluvchi illatlar, shuningdek, insonlardagi kibru havoning zarari haqida fikr yuritiladi. Zamaxshariy insonga doimo ilmi, adabli, taqvodor bo'lishni, bo'lar insonga eng mexribon ota-ona kabi yaqin bo'lishini uqtiradi. Ota-ona o'z farzandlariga doimo yaxshi niyat qilib, ularga ezgulik tilaganlari kabi, ilm, adab va taqvo insonga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi. Jumladan, birinchi maqoma bilan tanishsak, unda olim shunday yozadi: kishining kadrini dinu diyonati, ilmu ma'rifati oshirib kuysa, uning fakirligi va yetimligi buni tushira olmaydi. SHuningdek, kimda kim yomon sifatlari va nodonligi tufayli kadrini tushirgan bo'lsa, u hech vaqt boylik yoki nasl bilan uni tiklay olmaydi. Insonning asl otasi bu uning adabidir. Adab bebosh farzand uchun otadan ham yaxshi tarbiyachi. Taqvo-parxezkorlik esa insonning asl onasidir. U onadan ham dilkashrok. O'zingni shu ikki mexribon murabbiy bag'riga topshir va ulardan zinxor ayrilma. SHundagina seni Tangri taolo o'zining ne'matlari bilan serob qilur hamda hayoting fayzu barokotli bo'lur.

Maxmud Zamaxshariy insonni kamtarlikka undab, manmanlikdan yiroq bo'lishga chaqiradi. SHundagina inson hasadguylar ginasidan xoli bo'ladi. CHunki elning ma'lum va mashhur insonlari doimo turli kiyinchiliklar, hasad va buxtonlarga uchrab turadilar. Bo'larni ta'riflab Zamaxshariy shunday yozadi:

«Xalq aro ma'lum va mashhur bo'lish uchun imkoni boricha o'zingni kamtar va zabun tut. Nomingni el aro ovoza qilay desang, o'zingni nom-nishonsiz tutishga harakat qil. Mashxurlikdan ko'ra maxfiylikni afzal tut. SHuxratdan ko'ra xilvatni a'lo bil. SHunday qilsang, ranju kulfat changalidan xalos topib, gina-hasad balosidan uzoqrok bo'larsan. Zero, fazlu sharaf egalari doimo hasadguylar hasadidan va ginachilar ginasidan xoli bo'lmaslar».

Keyingi maqomalardan birida Zamaxshariy yozadi: eng baxtsiz odam kim deyilsa, men aytardimki, u mol-dunyasini saqlab, ehtiyot qiluvchi, obru-e'tiborining bemalol tukilishiga rozi bo'luvchi, qadr-kimmatini poymol qilishsada, boyligi but bo'lishini istovchi kishidir. Eng baxtli odam shuki, u xushshubbat va fayz-futuxli bo'lib, mazkur yo'ldan yurmay, o'z omborchisi va xazinachisiga boyligidan doim muxtojlariga yordam ko'rsatishni amir qiladigan, o'z nafs havosi jush urganda jim bo'l, deb bosib quyadigan, nafsoniyati yengillik qilganda uni yengib maqtov va tahsinga sazovor bo'ladigan kishidir.

Demak, Maxmud Zamaxshariy insonni komillikka yetaklovchi ezgu xislatlar haqida gapirib ularni to'g'ri yo'lga boshlaydi. SHuningdek, ulardagi kibru xavo, manmanlik, shuxratparastlik, ilmsizlik, xasadguylik kabi illatlarni qoralaydi.

O'zining boshiga tushgan qiyinchiliklarga chidamli odam dustlaridan o'tadigan aziyatlarga ham bardoshli bo'lur. U birovning qilgan yomonligi uchun jazo berish urniga, o'ziga olmay yonidan utkazib yuboraveradi. Ana shunday odamga Alloh tomonidan gina, xasadsiz dil berilgan, sof vijdon ato etilgan deyiladi. Qalbi yomonlik bilan yo'g'rilgan va yog'langan qog'ozdagi yozuv rangi oson ketgan kabi dilidan ezgulik oson ketadiganlarga Alloh qirg'in bersin, deydi Zamaxshariy.

Olim insonlarni doimo ezgulik, yaxshilik qilishga chaqiradi. Mana shu ishlar insonning ma'naviy pok, beg'araz, yaxshi tilakli bo'lishiga olib keladi.

Avval qilib kelgan xayrligu ezguliklaringizga keyin ham ezgulik qo'shavering, chunonchi, qo'shning qanotidagi kichik patlari katta patlariga madadkordir, deb yozadi.

Ezgulik, xayrli ishlarga astoydil kirish, ularni paysalga solib, keyin qilarman, degan uylardan voz kech, shayton yo'ldan uradigan shoshma-shosharlik bilan emas, tafakkur va idrok bilan ish tut.

Akl-idrok va sharoitga amal qilib ish tutgan banda asl va ikkinchi darajali maqsadu matlablarini jam qilishi muqarrardir.

Insoniyat to'g'ri yo'lni tanlab, ilgari borishi, hayotda o'z o'rnini topishida unga hamrox kishilarning ta'siri ham katta. SHu nuqtai nazardan, Zamaxshariy yo'ldosh, do'stga nisbatan ogoh bo'lishga chaqiradi. Agar yomon yo'ldoshga ergash-sang, uning og'usi bilan zaharlanasan, yaxshisi, uning dushmanlari jumlasidan bo'l, deydi Zamaxshariy, shunda uning ogusiyu zaxmatidan kutulasan.

Kimki baxt-iqbolli, solih kishilarning etagiga yopishsa, u albatta murodu maqsadiga erishib, xayru baraka topur.

Zamaxshariy ayrim insonlar o'zlarining yaqin qarindosh urug'lari, birodarlariga yaxshilik qilmay, begonalarga xayru ehson qilib, yordam ko'rsatishlarini aytadi. Vaholanki, ular o'z yaqinlarining muxtoj, bechorahol ekanliklarini biladilar. Lekin bundan ko'z yumib, bilmaganlikka oladilar. Ularning bu qiliqlari tuyaqushlarga o'xshaydi, chunki tuyaqushlar o'z tuxumlarini tashlab, boshqa qushlarning tuxumlarini bosib yotadilar. Zamaxshariy barcha yaxshilik, ezgulik, xayru exon, muruvvatni avval o'z yaqinlariga, so'ngra boshqalarga ko'rsatish lozimligini uqtiradi.

Olim jamiyatdagi, hayotdagi eng og'ir illatlardan biri sifatida poraxo'rlikni keltiradi. U pora sababli nohaqlik yuzaga kelishini ta'kidlab, undan zolimlik vujudga kelishini aytadi. Jumladan, Zamaxshariy shunday yozadi:

«Islom dinida ikki «shin» harflari katta ayblardandur, biri - hokimlarga rishvat (pora) berish bo'lsa, ikkinchisi ayblilarga shafolat qilish. SHu sababli, payg'ambar alayhissalomdan: «La'na ollohu ar-roshiy val-mustashiy» ya'ni rishvat (pora) oluvchiga

ham, beruvchiga ham Alloh taoloning la'nati bo'lsin» degan hadisi sharif sodir bo'lgandir.

Maxmud Zamaxshariy halollik, poklik, toza mehnat evaziga topilgan barcha narsani e'zozlash, avaylash, o'z o'rnini bilan sarf-harajat qilish lozimligini ta'kidlab, o'z hayotida ham shunga amal qilganligini kursatadi. Mol-mulkni bexuda sarflash insonni tanazzulga olib keladi, ziyon keltiradi. Alloma ushbu o'rinda juda sodda misol keltiradi. «Masalan, bir qo'lda oltita barmoq bo'lsa, bu ortiqlik bo'lmay, kamchilik hisoblanadi», deydi Zamaxshariy.

Maxmud Zamaxshariyning «Atvok o'z-zaxab» asari o'ozirgi kunda ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini yuqotgan emas. Bunga uning asaridan keltirilgan quyidagi ayrim maqomalar yaqqol dalil bo'la oladi:

Modomiki, biror kishi senga nisbatan birodarona munosabatda sobitqadam ekan, sen ham unga nisbatan birodarlik rishtasini mahkam tutgan holda boraver. Modomiki, u haqiqatga yondashar va uning uchun yoru dustlari bilan birgalikda kurashar ekan sen undan ajrama. Bordiyu uning atrofidagi ulfatlarining kimliklari noma'lum bo'lsa va so'zlaridan faqat nohaqlikka yondashish alomatlari aniq sezilib qolsa, u holda unday do'stning o'rniga choriqning ipini topsang ham o'shanga almashtirib undan uzoqlash. Zero, sadoqatli do'st taryoq dorisidan ham foydalirok, yomon ulfat esa zaxri qotildan ko'ra ham zararliroqdir.

Xushyor va zakovatli odam uldurki, uning fikr doirasi keng, uzoqni yaqindek ko'ra oladigan, g'aflat uyqusidan yiroq, balki hamisha fikru zikr bilan uyg'ok, maxfiy ishoratdan ham o'ziga xulosa ola biladigan, so'qir ko'zdan ham yosh oqiza oladigan bo'lur.

Bas, sen ham ko'kka boqib «etti og'ayni» yuldo'zlardan ibrat ol va tobut axlini (marxumlarni) ko'rib ko'z yoshingni ravon qil. Bilginki, o'zing ham ertami, kechmi ularga hamrox bo'lishing joizdir.

To boshingga ulim kelmaguncha xech kimdan yordamingni darig tutma. Muxtoj birodaringa kul ochiklik bilan exson qilishing va bu bilan o'z obru-

e'tiboringni saklab yurishing bamisoli oftob haroratidan ko'p yosh tukuvchi ko'zdirkim, bu yaxshilik loyik sifatlaridandir.

Ey dunyoviy foyda qidiruvchi odam, bas, yetar. Bu kasbing naqadar noxush. Hadeb dunyoviy extiyoj uchun o'zingni o'rintiraverishing obruyingga putur yetkazayotganini unutma. Kulbangning teshigini yamash uchun ozgina narsa kifoya, qanoatpeshalik sen uchun yetarli dasmoyadir. Bas, odamlardan ta'magirlikni uzub, Allohning fazlu karamidan umid qilishni to'xtatmagin.

Vaxolanki, dunyoda o'z nafsiga qul, lazzat topish uchungina yashayotgan kimsalar ham borki, ularga qorin tuysa bas, obro'sining to'kilishi ular uchun ahamiyatsiz bir narsadir.

Faqat dunyo va mol yig'ishni maqsad qilib olgan surbet odamga uning bu sifati har tomondan o'lja keltirar, yopik eshiklarni ochar, xurmo va boshqa xushxur yemishlarni yedirar, dadil aytishga jasoratli qilar, qiyin ishlarni esa osonlashtirib berar.

SHarmu xayoli yuzning egasi tili lol, birovga tik boqib so'z ayta olmas, andisha ipidan chiqa olmas, doimo xoli tang, yigiga doimo shay, boshqalarning qorni to'k, u esa och, ular serob, u esa tashnai ob, lekin shunday ahvolda bo'lsa ham u surbetlik qilmas, molu boylik uchun o'zini xorlikka solmas.

Umrimga qasamyod qilib aytamanki, ta'magirlik ila topgan matoxi baribir oz va nosoz hisoblanur. Allohning yorug kunlari haqqi, peshona terining bir tomchisi har kanday sohibjamol, barno yuzidan go'zal va meshingda bir yutim suv qolmaganda ham birovdan suv so'ramasdan, obruyingni saqlab qolganing butun bir dengiz suviga ega bo'lib turib yuzingda sharm bo'lmaganidan afzaldir.

Mardlik shunday bir ulug' xislatki, u Allohning roziligini topishga vasiladir. Saxovat shunday bir buyuk sifatki, uni doimo maqtoov ila yod eturlar. Nomardlik esa shunday bir illatki, uningdek xunuk bir narsani ko'rmadim. Do'stlik va birodarlikka faqat saxovat ahligina loyiqdurlar. Ular sababli dardli dillar shifo topur va sinik so'ngaklar bitur. Ne'matlar sendan o'zoqlashganda ular yaqinlashtirurlar, kulfatlar senga hujum qilganlarida ular kushoyish ato eturlar.

Kimiki hayotlik davrida man etilgan yomon ishlardan hazar qilib yurgan bo'lsa, albatta, u o'lim paytida rohat topgusidir. Unday kishini Podshoxi olam o'z farishtalari bilan birga qarshi oladi. Ular unga roxat va farog'atda bo'ladigan jannat uni kutayotgani to'g'risida bashorat bergaylar.

Demak, kimiki savobli ishni ko'rganda xursand bo'lib, uni darxol bajarishga shoshilsa, gunox ishni ko'rganda uni yoqtirmay o'zini chetga olsa hamda yomonlarni tahkirlash to'g'risidagi Allohning amriga itoat qilib, ularga g'olib kelsa va yaxshilarga yordam ko'rsatib hojatlarini ravo etishga harakat qilsa, bilingki, u baxtli odam ekan.

Demak, Maxmud Zamaxshariy o'z asarlarida komil inson tarbiyasi bilan bog'lik masalalarni muxim deb biladi. Inson doimo ilm olishi, har qanday ishni aql, idrok, faxmu farosat, shariatga, payg'ambar alayxissalom ta'limotlariga muvofiq amalga oshirishi lozimligini ta'kidlaydi. U jamiyatdagi riyokorlik, poraxo'rlik, isrofgarchilik, fisqu-fasod, baxillik, mutakabbirlik kabi barcha salbiy illatlarni qoralaydi va ularni doimo yo'qotish, tuzatish zarurligini uqtiradi.

II bob XIX asr oxiri va XX asr ma'rifatparvarlari hamda jadidlar ijodida tinchlik va bag'rikenglik

1. Axmad Donish ijodida tinchlik va bag'rikenglik

XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning boshlarida Turkiston zaminida mustamlakachilik va ulug' millatchilikka asoslangan siyosiy-ma'muriy tizim barpo etildi. Rus hukumati o'zbek va boshqa tub aholiga siyosiy va insoniy huquq berishni xayoliga ham keltirmadi. Rus matbuotida va ilmiy asarlarida Turkiston o'lkasi ochiqdan-ochik «Rossiya mustamlakasi» nomi bilan izohlandi. Mustaqillikning yo'qotilishi, siyosiy haqsizlik va adolatsizlik butun jamiyat ahlini chor hukumatiga qarshi qudratli muxolifatga aylantirdi. Aynan shunday sharoit jadidlarning siyosiy, iktisodiy va ma'naviy qarashlarini belgiladi. Ular orasida mahalliy yuqori tabaqalarning ilg'or vakillari ham bo'lib, ozodlik g'oyalari borgan sari kuch-quvvatga to'lib bordi. Bu g'oyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etdi. SHuning uchun ham jadidlar mazlum xalqni ozodlik kurashiga da'vat etdilar.

Bu kurashda esa, avvalo, ma'rifatparvarlik g'oyalari salmoqli o'rinni egalladi. Bunda jadidlar asosiy e'tiborni xalqning savodini chiqarishga, bilimini oshirishga, milliy his-tuyg'ularini va siyosiy ongini o'stirish uchun kurashga qaratdilar. CHunki rus davlatining yarim asrdan ortiq hukmronligi davrida hukumat tomonidan mahalliy aholi uchun birorta zamonaviy milliy maktab, o'rta va oliy o'quv yurti ochilmadi. Bosqinchilar o'zbek xalqini jaxon taraqqiyotidan chetda qoldirib, fan va madaniyatning o'sishiga katta to'sqinlik qildi. Natijada, o'zbek va boshqa tub axoli vakillari qorong'ulikda va qoloklikda, umuman, ma'naviy qashshoklikda hayot kechirdi.

Darhaqiqat, jaholat hech qachon ma'naviyat va ilm-fanni tan olmaydi. Jaholatning boshida turgan ilmsiz kimsaning tuban dunyoqarashiga xos biqiq «qoidalar» vujudga keladi va boshqalarni unga buysunishga majburlay

boshlaydi. Ilm-fansiz bobolar merosini o'rganib, rivojlantirish u yoqda tursin, hatto asrab bo'lmaydi. SHu bois Amir Temur davlatchiligi, Forobiyning fozillar jamiyati, Ibn Sino tibbiyoti, Xorazmiyning aniq fanlari, Beruniyning qomusiy ilmi, Ulug'bek koinoti - hamma-hammasi jaholat pardasi ortida qoldi, unutildi. Bobolarning g'oyalari, orzulari orzulgicha qolib ketdi.

Bobolar qonidagi shunday g'oya va orzular jadidlar ijodidan joy oldi. Turkiston jadidlarining yetakchisi, mufti Maxmudxuja Bexbudiy ta'kidlaganidek, «Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebaxra millat boshqalarga poymol bo'lur». Ta'kidlanayotgan «dunyoviy fan va ilm» bu bir davlatning kudratini, madaniyatini, ma'naviyatini rivojlangan mamlakatlar qatorida saqlab turuvchi omildir. Bunday ilm-fanning rivoji esa ta'lim tizimining puxtaligi, fanning rivojlanishi uchun yaratiladigan sharoitdadir. SHu bois Toshkentda Munavvarkori, Abdulla Avloniy, Buxoroda Fitrat, Qo'qonda Ashurali Zoxiriy, Samarqandda Abduqodir SHakuriy kabi kator jadidlar bu fikrga qo'shilgan holda ta'lim islohiga kirishdilar.

Albatta, ma'rifatparvar jadid namoyandalarining ismi shariflarini, qilgan ishlarini cheksiz keltirish mumkin, lekin ushbu qismda aynan bugungi kunga kelib orzulari ushalgan, g'oyalari amalga oshgan ma'rifatparvar jadidlar haqida so'z yuritmoqchimiz.

Ahmad Donish yoki Ahmad Kalla deb nom kozongan Ahmad ibn Mir Nosir YUsuf al-Hanafi as-SiddiQiy al-Buxoriy Buxoro amirligida XIX asrning o'rtalarida yashab ijod qilgan, ilg'or fikrlari bilan nom qozongan shoir, mutafakkir, ma'rifatparvardir. U 1827 yili Buxoro shahrida tug'ilgan va 1897 yili shu yerda vafot etgan. Axmad Donishning otasi o'g'liga yaxshi tarbiya va qunt bilan bilim bergan. Uning otasi dehqonlar orasidan chiqqan bo'lib, Sug'ut

kishlog'idan Buxoro shahriga o'qishga kelgan va o'qishni tamomlagach, Buxorodagi machitlardan birida mullalik qilgan.

Boshlang'ich bilimlarni Axmad Donish bu yerdagi maktab va madrasalarda olib, tarix, adabiyot, astronomiya, geometriya, tibbiyot, hattotlik, musiqiy san'at sohalarini mustaqil o'rgangan va o'z davrining ilg'or olimi va mutafakkiri darajasiga ko'tarilgan. Axmad Donish 1828-1860 yillar davomida amir Nasrulloh saroyida bosh hattot va rassom sifatida ishlagan, lekin ba'zi bir sabablarga ko'ra saroy xizmatidan ketgan.

Aloxida ta'kidlash kerakki, Buxoroning bu davrdagi tarixi haqida so'z yuritgan tarixchilar, eng avvalo, tabiiy va aniq fanlardagi chuqur bilimi uchun muhandis deb atalgan, ulug' ma'rifatchi olim va shoir Axmad Donish asarlariga suyanishadi.

SHuning uchun ham Buxoro amirlari uning chuqur bilimlarini hisobga olib, Rossiyaga yuborilayotgan elchilar safida 3 marta safarga yuboradi. Axmad Donish 1857, 1869 va 1874 yillarda Peterburgda bo'lib, Ovrupa madaniyati, ilm-fan sohasidagi yutuqlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu safar undagi hukmron doiralarga nisbatan bo'lgan tanqidiy munosabatni yanada chuqurlashtiradi. O'z taassurotlari ta'sirida Buxoroda mavjud tartiblarni islox qilish loyixasini olg'a suradi. Bu esa amir Muzaffariddin (1860-1885) noroziligiga sababchi bo'ladi va u Axmad Donishni Xuzratga qozi etib jo'natadi. Bu vazifada ishlash esa uning Buxoro ijtimoiy tuzilishida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar zarurligi haqidagi pozitsiyasini yanada qat'iylashtiradi. Axmad Donish amir o'limidan so'nggina Buxoroga qaytadi va 1897 yili vafot etadi.

U «Navodir ul-vaqoye» («Nodir voqealar») asarida mavjud tuzumga o'z munosabatini bildiradi va Buxoro amirligida davlat boshqaruvi islohotini taklif qiladi. Ushbu kitob 23 bobdan iborat bo'lib, Axmad Donishning asosiy va yirik asari hisoblanadi. Mutafakkir o'zining bu shox asarini butun umri davomida

yozadi va o'zining turli masalalarga munosabatini ifodalaydi. Asarning «Mamlakatni boshqarish va xalqni ma'rifatli qilish» haqidagi risolasining uchinchi faslida hukmdorlarning yurtni, elni idora qilish usullari, xalqparvar, bag'rikeng, adolatli bo'lishlari haqida gap boradi. Bunda u: **«Bir mamlakatda tinchlik va mo'lchilik bo'lib, buning ovozi atrofga tarqalsa, buni eshitgan savdogarlar, hunarmandlar va olimlar har tomondan kela boshlaydilar. Bunday shaharga atrofdan keluvchilar ko'payib, ular har xil mol olib keladilar. Bu bilan mamlakat obod bo'lib, xazina boyligi ortadi»**³ Ushbu fikrlari bilan alloma davlatda tinchlik-totuvlik bo'lsagina, rivojlanish, yuksalish, farovon hayot bo'lishini isbotlamoqchi bo'ladi. Bu esa birinchi galda mavjud tartiblarning yaramasligi, ularni o'zgartirish zarurligini ko'rsatadi. Bu ishlarni amalga oshirishda hukmdorlarning xalqqa nisbatan adolatli, bag'rikeng, odil bo'lishini istaydi va orzu qiladi. Bu borada: **«Podshoh sababsiz hech kimning diliga ozor beruvchi bo'lmasin. Chunki uni xalq o'z tinchligi va erkin yashashi uchun bu ulug' darajaga ko'targan. Podshoh ularga ozor berar ekan, ish teskarisiga aylanadi»**. Albatta bu holda davlatda tinchlik-totuvlik bo'lmaydi, tinchlik bo'lmagan joyda esa xalq farovon hayot kechira olmaydi. YOki «Podshohlar yetimlarning otalaridir. SHunday bo'lgach, podshohlar yetimlarga o'z otalaridan ham ko'proq g'amxurlik qilishlari lozimdir; toki podshoh ota bilan faqir otaning farqi bo'lsin. yetimlar balog'atga yetguncha podshoh ulardan in'om qo'lini uzmasin. Imkoniyat boricha ehson eshigini ochib tutsin»⁴ degan fikrlari hukmdorlarni, amaldorlarni mexr-okibatli, ezgu niyatli, halol-pok, mehribon bo'lishga chorlaydi. Axmad Donish hukmdorlarga : **«Agar podshoh axloqsiz va adolatsiz bo'lsa, u holda uning amr va farmonlari hamda har xil nasixat so'zlari**

³ Акмад Дониш, «Наводир ул-вақое» (Нодир воқеалар) , И.М.Муминов таҳрири остида , «Фан» нашриёти, Тошкент, 1964 йил 63-бет

⁴ Ўша асар, 65-бет.

xalqqa ta'sir qilmaydi. Agar qamchi solib, askar kuchini qo'llanib qo'rqitish bilan so'zini yurita olsa ham, haqiqatda esa unday podshoh buzuq odamlariga o'zi yordam qilgan bo'ladi»⁵ deb murojaat qiladi va uqktiradi.

Axmad Donish kishilarni g'ayratli bo'lishga, o'z xususiy ishlariga o'ralib qolmay, qaysi yo'l bilan bo'lsa ham o'zgalar uchun, xalq uchun foyda keltirishga da'vat etadi. «Bo'lajak ishlarning albatta amalga oshishi haqida»gi hikoyasida: «Xorun ar-Rashid xalifa safar yo'lida ketayotganida ko'chat ekib yurgan kishiga uchragan. Undan bu nima ko'chat deb suraganda, yong'oq ko'chati degan. Bu qachon hosil beradi deb so'raganda 20 yillar ichida hosilga kiradi degan, sen o'zing qarilikdan aljib qolibsan, shuncha mehnat qilib ekaning bilan foydasini ko'rolmasang, senga undan nima foyda deb savol bergan. SHunda chol, ekib ketganlarning mevasini biz yedik, endi biz ham ekib ketaylik, o'zimiz yeyolmasak boshqalar yesin, degan»⁶.

Bu misol bilan alloma odamlarni nafaqat o'zi, balki o'zgalar dardi, hayoti, tashvishlari bilan hamo-hang yashashga chaqirgan. Insonlar o'rtasida mehr-oqibat, do'stlik bo'lsagina tinchlik-totuvlikka erishish mumkin. Tinchlik hukm surgan davlat fuqarolari esa albatta farovon hayot kechiradi.

Yana SHerning himmati va muruvvati haqida»gi hikoyasi-da: «... agar birovning senga hojati tushib bosh egib kelsa, dushmaning bo'lsa ham uning uzrini qabul qilib, hojatini chiqargil; agarda birovdan yaxshilik kutar ekansan, unga sen ham yaxshilik qil...»⁷, deya mehr-muruvvatli, saxiy bo'lishga chaqiradi.

Xususan, uning «Risolai tarixiy amiron mang'it» («Mang'it amirlari tarixi haqida risola») nomli mashhur asarida mamlakatning yorqin tasviri berilgan. Unda boshqaruv tizimi bayoni, xalqlarning ahvoli, Rossiya bilan urush masalalari yoritilgan. Ahmad Donish amir Doniyoldan to Abdulahadgacha

⁵ Ўша асар, 38-бет.

⁶ Ўша асар, 124-бет.

⁷ Ўша асар, 304-бет.

bo'lgan barcha Buxoro amirlarini davlat va uning fuqarolari farovonligi yo'lida emas, balki fakat o'z shaxsiy manfaati yo'lida qayg'urgan no'noq hukmdorlar sifatida tasvirlaydi. «Ular, -deb yozadi u - nima topishsa, o'shani olib qo'yishgan, beva-bechoralar shamchirog'idagi olovdan tortib, vaqf omboridagi g'allagacha o'g'irlashar, qorin g'ami va quvonchu xursandliklariga xizmat qilsa bo'ldi edi. Hech kim qarshilik ko'rsatishga jur'at etolmasdi. Amirlar va hokimlar orasida qimorbozlik, mayxurlik va bo'zuklik avj oldi, dexkon va xunarmandlarda esa shavqatsizlik, ezish, soliqlar va aminona, vaqilona kabi yig'im serobligidan na turish, na yurishga hol koldi». Mana shunday hayotdan misollar keltirib, u shunday yozadi: «Agar biror beva bozorga bir tup ip olib kelib uni uch fulusga (mahalliy tanga) sotsa, shundan ikki fulusini amin olib qo'yadi, agar biror kishi bir bog'lam o'tinni uch dirhamga sotsa, shundan ikki qismi amin ulushi bo'ladi».

Axmad Donishning fikriga ko'ra, «davlat bir gurux kishilar extiyojlarini qondirish uchun emas, xalq manfaatlari uchun, mamlakatni obod qilish uchun xizmat qilmog'i zarur. Biz dunyoni gullab-yashnatish uchun, dengizlar kezi, o'rganish uchun, yer osti boyliklarini topish uchun tug'ilganmiz», - deb yozgan edi. Buning uchun hukmdor bilimdon, ma'rifatli, odil bo'lib o'z fuqarolari manfaatlari uchun xizmat qilmog'i shart. U qanday masalani hal qilmasin, eng avvalo, o'zini fuqaro o'rnida, ularni esa o'z o'rnida tasavvur qilmog'i lozim. Bu adolatni ta'minlashga imkon yaratadi.

Axmad Donish o'z vatanini qoloqlikdan chiqarish yo'llarini tinmay izladi. «Kishi o'z vatanini himoya qilsagina, o'z xalqi bilan birga bo'lsagina, u har doim baxtiyordir», -deb ta'kidlaydi.

Axmad Donish SHark mutafakkirlari ta'limotini o'rganish bilan bir qatorda G'arbda tarqalgan ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar bilan ham qiziqadi. Garchi bu ta'limotlarni Donish qabul qilmagan bo'lsada, uning bo'larga nisbatan

bo'lgan munosabati mutafakkirni keng ko'lamdagi tadqiqototchi va ijtimoiy-siyosiy orzulari kengroq ekanligini ko'rish imkonini beradi. Axmad Donish XIX asrning ikkinchi yarmi sharoitida Buxoro ijtimoiy-falsafiy fikrlari sohasida ilg'or progressiv oqimning asoschisi, ajoyib ma'rifatparvar olim edi. U feodal va amirlik tuzumiga qarshi chiqib, yevropa, rus madaniyatini Buxoroga yoyish yo'lida xizmat qildi; xalq ommasining manfaatlari uchun o'ziga xos yo'l bilan kurashdi. U o'sha vakt tarixiy sharoitini o'zining ilg'or siyosiy, nazariy, falsafiy fikr-qoidalarini orqali izoxlashga harakat qildi.

Axmad Donish Buxoro amirligi usul-idorasini, ruxoniylar va zodagonlarning buzuvq aysh-ishratlarini, mazmun-ma'nosiz turmushini tanqid qiladi va kambag'allarning og'ir hayot kechirish sabablarini ochib beradi. Eng muhimi shundaki, Axmad Donish asarlarida yangilik, olg'a intilish, zamonaviy madaniyat, yevropa, rus madaniyati, mazlum xalq manfaatlarini nazar-e'tiborga olish, mamlakat obodonligi, uning texnika yuksalishini chin qalbdan istash g'oyalari yetakchi hisoblanadi. Bu g'oyalar «Navodir ul-vaqoye» asarida, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi va Axmad Donishning falsafiy dunyoqarashini aniqlash jihatidan muxim ahamiyatga egadir. O'rta asr falsafasida keng tarqalgan tavakkul nazariyasini tanqid qilib bunday deb yozadi: «Agar kishi tavakkulga ishonib harakat qilmasa, mehnat qilmasa va qiyinchilikda, kambag'allik bilan hayot kechirish yoki mo'l-ko'llikda yashash qismatda bor ekan, deb aytsa, unday kishi xato qiladi. Demak, u aqlli emas». Asarda juda ko'p ijtimoiy-axlokiy masalalar xususida fikr yuritilgan.

«Farzandlarga vasiyat, kasb va hunarning foydalari haqida»gi hikoyasida: «Endi (o'g'illarim), sizlarga aytadigan mening vasiyatim shulki, sizlar xalqning hojatini chiqaradigan bir hunarning boshini ushlanglar. SHu bilan jamiyatga ham yordam qilgan bo'lasizlar. Zinhor, mol to'plab, dunyo ko'paytirishga tirishmanglar. Dunyo to'plashga kirishganlar botqoq loyiga botadilar. Qaysi bir

hunar, qaysi bir kasbni qilmokchi bo'lsangiz, undan qutilgan maqsad xalq uchun foyda yetkazish bo'lsin. Ilm o'qib, hunar orttirishda vatandoshlarning hojatlari chiqarishga niyat qilinglar» Axmad Donish ushbu vasiyatlari bilan avvalambor har bir inson, ayniqsa, yoshlar hunar egallashga intilishi va shu kasb-hunari albatta xalqqa, davlatga, jamiyatga foyda keltirishi zarurligini nasixat qiladi, uqtiradi.

Axmad Donish «In risolaist islox miyoni shiya va sunn» («SHiyalar va sunniylarni yarashtirish to'g'risida nasixat») degan qo'lyozmaning ham muallifidir. Bu asar uning diniy dunyokarashlariga munosabatini belgilab berishda alohida ahamiyatga egadir. Ushbu asarda O'rta Osiyo tarixi, shiya va sunniylarning o'zaro kurashlari tarixi hamda uning sabablari yuzasidan boy materiallar berilgan. Bunda u shiya va sunniylarning murosaga kelish masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Axmad Donish asarlari islomning falsafiy mohiyatini yangicha o'qish, uning dunyoni tushuntirish va insonning bu dunyoda tutgan o'rnini to'g'ri tushunishning yorqin namoyishi bo'ldi. U Qur'ondagi bilim, o'gitlarga shunchaki rioya qilish emas, balki o'z zamini, o'z taqdirining egasi bo'lish zarurligini uqtiradi.

II. 2. Maxmudxuja Bexbudiy ijodida tinchlik va bagrikenglik

Maxmudxuja Bexbudiy 1875 yilning 19 yanvarida Samarkand yaqinidagi Baxshitepa kishlogida tugilgan. Otasi Solixxo'ja o'g'li turkistonlik, Axmad YAssaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir SHoxmurod zamonida Samarkandga kelib qolgan. Otasi vafotidan so'ng yosh Maxmudxuja tog'asi qozi Muhammad Siddiq tarbiyasi va qaramog'ida

o'sadi. Bexbudiy 18 yoshidan qozixonada mirzolik qila boshlaydi. O'z ustida kunt bilan ishlab, qozi, mufti darajasigacha ko'tariladi.

1899-1900 yillarda Bexbudiy haj safariga boradi. Dunyo ko'rish izsiz ketmaydi. Safar yangi maktablarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. SHu yillarda maktablar uchun «Risolai asbobi savod», «Risolai jug'rofiyai umroniy», «Amaliyoti islom», «Tarixi islom» va x.k. kitoblar paydo bo'ladi.

Bexbudiyning tashabbusi bilan chiqqan «Oyna» jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qilgan. «Oyna» jurnali allomaning qaynoq faoliyatini ko'rsatadigan va g'oyalarini ilgari surgan yorqin yodgorlik hisoblanadi. Unda millat va uning haq-huquqlari, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo axvoliga doir qiziqarli makolalar, baxslar berib borilgan. Ayniksa, til masalasi muharrirning hamisha diqqat markazida turdi. Bexbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart xisoblardi. Jurnalning 1913 yil 13 avgustdagi birinchi nishona sonidayok «Ikki emas, to'rt til lozim» degan maqola bilan chiqqan edi. Bunga misol tariqasida, «Oyna» jurnalining to'rt tilda nomlanishi («Oyna», «Ko'zgu», «Mir'ot», «Zerkalo») chet tillarni bilish va egallash zarurligidan dalolat beradi.

Maxmudxuja Bexbudiy Turkiston parlamentida faqat rus tilidagina gapirish katta xato bo'lur edi, deb hisoblardi, turkiy va rus tillari teng huquqqa ega bo'lishi kerak va bu narsa ertami-kechmi amalga oshadi deb ishonardi. Darhaqiqat, tillarni hurmat qilish bu - millatlarni hurmat qilish, ularni tushunish va birgalikda bahamjixat yashash degani. Millatlararo totuvlik hukm surgan davlatda esa albatta tinchlik-totuvlik, o'sish, rivojlanish bo'ladi.

Darhaqiqat, Bexbudiy tinchlik, murosas tarafdori bo'lgani sababli mustamlakachilikka qarshi konsiz ko'rash olib borish zarurligini anglab, har kanday inqilobga qarshi edi. U doimo diqqat bilan Duma ishini kuzatar, parlament kurashi orqali ko'p narsaga erishsa bo'ladi, deb hisoblardi. Hatto,

Rossiya tarkibida turib ham Turkiston o'z mustaqilligiga erishishi mumkin, deb uylardi.

Bexbudiy fikricha, demokratik Rossiya doirasida Turkistonning muxtoriyat maqomi ostida yashashi uchun asosiy shart - bu ichki mojaro va ziddiyatlarga barham berish edi. «Bayoni haqiqat» makolasida:

«Biz istaymizki, butun Rusiya musulmonlari muxtoriyat (federatsiya) usuli yuzasidan tiriklik qilsunlar. Rusiya musulmonlarining har bir shu'basi muhiti jug'rofiya va mamlakatlarini hudud tabiyasi (chegarasi) bo'yicha ayrim bo'laklarga bo'linib, o'z taraflaridan o'z hurriyat va odatlariga muvofiq ... idora qilinib va butun Rusiya musulmonlari uchun Rusiya poytaxtida bir «Musulmon markaziy idora» vujudga keltirilib, siyosiy va iqtisodiy va mamlakat ishlariga ruslar ila qo'lma-qo'l ushlab, dunyo va taraqqiy maydoniga harakat va birga javlon etilsun... Muxtoriyatli maishatni vujudga keltirmoq uchun... al-xusus, biz - Turki-ston musulmonlariga lozimki, avvalo, qadim va jadid nizo lafzisini quyib, o'zaro ittifoq istasak. Turkiston musulmonlari bundagi rusiy, yahudiy va boshqalar qo'shilgan holda o'z boshlariga rusiyaning bir parchasi hisoblana turgan Turkiston hukumini (hukumatini) ta'sis etsak, o'zimiz majlis mashvaratimiz (parlamentimiz) bo'lsin, desak, Turkiston musulmonlari shariat va odatlariga, o'z zakun va dinlariga muvofiq tiriklik qilsinlar. Turkiston yahudiy, nasroniy va musulmonlari uchun hammalarining manfaatlarini e'tiborga olaturg'on qonunlar tuzulsin. Agarda biz Turkiston musulmonlari xohlasakki, din va millatimizni... ittifoq etib, bugundan islohotga, ittifoqqa qadam quysalar... ziyoli va taraqqiyparvarimiz, boy va ulamomiz birlashib, din va millat, vatan rivoji uchun xizmat etsak... O'zimizdan bora-bora tadrijiy suratda askarlarimiz bo'linsin. Ul milliy askarlarmizning vazifasini, qiyofat va shaklini, libos va tarzi maishatini o'zimiz tayin qilurmiz. Mana, bizning oldimizda eng katta ishlar turibdur... Hozirgi ahvoliga qaraganda yana biz

musulmonlar ruslarning fuqarosi va raiyasi bo'lgan o'lkadek, alardan dast va rivojiga qolurmiz. Koloniya qoidasi ila bizni idora etarlarki, bunga o'z ixtilofimiz sabab bo'lur»,⁸ deydi. Ko'rinib turibdiki, Bexbudiy qon to'kilishiga qarshi bo'lib, mustaqillikka tinch yo'l bilan erishish tarafdori bo'lgan. Uning fikricha, mustaqillikka erishish yo'lidagi eng muxim navbatdagi qadamlardan biri bu yoshlar va keksa avlod vaqillarining birlashuvi edi. YOsh avlod o'zidagi shoshqaloqlik illatidan qutulib, masalalarni hal qilishda ilmiy asoslarga suyanib ish ko'rishi va mustahkam iroda namoyon etishi kerak deydi. Bu esa o'z navbatida yoshlarni chuqur bilim egallashga, birlashishga, ma'nan yetuk, komil insonlar bo'lib yetishishga chorlagan.

SHuning uchun Bexbudiyning diqqat markazida turgan masalalardan biri maorif tizimini isloh qilishdan iborat edi. Milliy manfaatlarni himoya qila biladigan, iktisodiy va siyosiy qaramlik va qoloqlikdan chiqish muammolarini yecha oladigan zamonaviy bilimga ega, savodli kadrlar bo'lishi zarurligini yaxshi anglagan. «Biz dinimiz va mamlakatimizni himoya qilishda ishonchli va mustahkam vositaga ega bo'lmog'imiz shart. Bu vosita maorifdir»,- deydi Bexbudiy. Uning bu fikrlari hozir ham o'z ahamiyatini yuqotgani yo'q.

Jadidlar o'z maqolalarida va asarlarida maorif, ijtimoiy hayot va turmush tarzining ayrim tomonlarini islox qilish zarurligini uqtirish bilan birga, yoshlar diqqatini musulmonlarning o'tmish madaniyatiga, ma'naviy poklik masalalariga jalb qildilar va o'tmishni mavjud ahvolga taqqoslab ko'rsatishga intildilar.

Jadidlar eng ma'qul va maqbul jamiyat deb demokratik jamiyat barpo qilishni ko'zda tutgandilarki, bunday jamiyatda demokratik HUQUQ va erkinliklar konstitutsiya yo'li bilan ximoya etilishi zarur edi. Ularning beqiyos

⁸ Алимова Д.А., «Махқмудхужа Бехбудий ва унинг тарихий тафакку-ри», «Академия», Тошкент, 1999 йил, 24-бет.

xizmatlaridan yana biri bu barcha Turkiston xalqlari va millatlarining konun oldidagi tengligi haqidagi g'oyaning ilgari surilishi bo'lib, bunga ko'ra Turkiston fuqarolari jamiyat hayotining barcha iktisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va madaniy jabhalarda teng huquqqa ega bo'lishlari lozim edi.

Maxmudxuja Bexbudiy 1919 yil Qarshi begi Tog'aybekning buyrug'i bilan zindon yaqinidagi «podsholik chorbog'i»da o'ldirilgan. Bugun Bexbudiy kabilar muqaddas tutgan yurt ozod va mustaqil bo'ldi. Ular jon fido etgan istiqlol avlodlariga nasib etdi. Millat va Vatan mustaqilligi yo'lida fido bo'lganlar esa shu Millat va Vatan umri kabi boqiydirlar.

II. 3. ABDULLA AVLONIY VA FITRAT IJODIDA TINCHLIK VA BAGRIKENGLIK

Abdulla Avloniy 1878 yilning 12 iyulida Toshkentda tug'ilgan. Otasi Miravlon aka mayda hunarmandchilik – to'quvchilik bilan shug'ullangan. Abdulla 7 yoshida Ukchidagi eski maktabda Akramxon domlada savod chiqardi. 1890 yil shu mahalladagi madrasaga o'tdi. SHu yillarda Navoiy, Fo'zuliylar g'azallarini o'rgandi va mehr quydi.

Fors, rus, ozarbayjon, arab tillarini mukammal o'rganib, sharq va g'arb madaniyati klassiklari bilan yaxshigina tanish bo'lgan. 1930 yilda unga SAGU pedagogika fakultetining til bilimi kafedrasini buyicha professor bo'lib

tasdiqlangani bejiz emas. Orenburg, Qozon, Tiflisda chiqib turgan gazeta-jurnallarni doimo kuzatib borgan. Qiska muddat ichida u ma'rifatparvar sifatida tanildi va o'lkadagi ijtimoiy-madaniy harakatchilikning faol namoyandalaridan biriga aylandi.

Avloniy 1927 yilda «Mehnat qahramoni» unvoni bilan taqdirlandi. 1930 yilda «O'zbekistan xalk maorifi zarbdori» faxriy unvoni berildi.

1900 yilda Avloniy toshkentlik savdogar bir xonadonning Salomatxon degan qiziga uylandi. Ular uch qiz va uch ug'il farzand ko'rdilar. Abdulla Avloniy 1934 yil 25 avgustda vafot etdi. U o'z zamonasining kuyunchak odami, haqiqiy Vatan farzandi edi. Avloniy butun umri davomida xalq dardi bilan yashadi. O'z xalqi g'amiga hamdard bo'libgina qolmadi, uning istiqboli uchun qayg'urdi, unga ozodlik va baxt qidirdi, uni muqaddas g'oyalar uchun kurashga da'vat qildi. Maktablar ochib, keng xalqni ma'rifatli qilishga, yoshlarni davrning ilg'or g'oyalari ruhida tarbiyalashga urindi. Jadidchilik harakatining maydonga kelishiga va taraqqiy etishiga xizmat qildi.

Bunga misol, Avloniy 1909 yilda «Jamiyati xayriya» ochdi va mahalliy xalq bolalari o'qib, chet ellarda bilim olishi uchun pul yig'ib maktablarga tarqatdi. Bundan tashqari yordamga muxtojlarining moddiy ahvolini yaxshilash, yetimlar, keksalar, nogironlar uchun kasalxona, ambulatoriya, choyxona, oshxona, yotoqjoylar ochishdi. 1919 yilga kelib jadid-ma'rifatparvarlarning tashabbusi bilan «Turon» jamiyati maydonga keldi. Uning asosiy maqsadi quyidagicha belgilandi:

- aholi o'rtasida saxna ishlariga, ezgulikka muhabbat uyg'otish, jiddiy munosabat o'stirish;
- xalq uchun spektakllar qo'yib berish va ular orqali xalqqa sog'lom xordiq bag'ishlash;

- ma'naviy va moddiy axvolini yaxshilashga muxtoj bo'lgan kishilarga yordam berish.

Ko'rinib turibdiki, Avloniy odamlarning ma'rifatli, ezgu g'oyalar bilan sug'orilgan, madaniyatli, bag'rikeng inson bo'lishlarini orzu qilgan. Uning «Arslon va ayiq» hikoyasi bunga ibratli misol bo'la oladi. Hikoyada arslon bilan ayiq do'stlashadi. Dustlar ovga chiqib, kiyikni qo'lga tushiradilar. «Lekin uni taqsimlashda kelisholmay qoladilar. Arslon kattaligini pesh qiladi va o'ljaning ko'progini talab etadi. Ayiq esa kichikligiga qaramay ko'p mexnat qilganini aytadi. Baxslashuv urushga aylanadi. Ikkala tomon ham holdan toyadi. Bundan bo'rilar xabar topib uljani paqqos tushiradilar. Ikkala do'stga esa suyaklar qoladi, xolos. Hikoyadan kelib chiqadigan xulosa shuki, agar odamlarni birdamlik, hamjixatlik, dustlik, o'zaro hurmat kabi olijanob hislatlar birlashtirib turmas ekan, ular o'rtasida ittifoqsizlik hukm surar ekan, u halokatli oqibatlarga olib kelishi muqarrardir. Bu esa bugungi kunga qadar eng muxim muammolardan biri bo'lib kelmokda.

Avloniy adolatni, har bir millatning ozod va baxtli bo'lish huquqini dunyoning asosi deb biladi, birovga «jabr qiluvchining yoqasi hech qachon jazo qo'lidan qutula olmas»ligini aytadi. Zulmni qoralar ekan, «Mazlumning oxidan o'tkir nasra yo'q:

Hazar qil oxidan, afg'onidan u mazlumni

Bir ox birla solur boshinga butun arosat»,

deya erk va ozodlikni har narsadan baland qo'yadi.

Alohida ta'kidlash kerakki, nodonlik va jaholatga qarshi kurash, uni so'ngsiz qahru g'azab bilan inkor etish, jami fojia va baxtsizliklar sababkori sifatida talqin qilish jadidlar faoliyatining asosiy xususiyatlaridan birini tashril qiladi.

Avloniyning 1912 yilda bosilib chikkan «Dunyo fojeasindan» deb nomlangan she'ri bunga misol bo'la oladi. Undan bir parcha:

*Hayvon kabi har yerda inson qilinur kurchon,
Fir'avna bu kunlarda taqlid etiyur inson,
Bu kori fanolardin hatto o'rtanur shayton,
Bu jabru sitamlarning ma'nosi nadur, bilmam.
Diqqatla boqur bo'lsang, ahlingni bosur hayrat,
Haq pastda qolub, nohaq pul birla topur quvvat,
Bo'lg'usi zabun holing, yuq sanda agar sarvat,
Xalqning bu qiziqdirg'on dunyosi nadur, bilmam.⁹*

Ushbu satrlarda shoir insoniyat olamida insoncha hayot yuqligini, bexuda tukilayotgan qonlar, odamlarning hayvoncha qadri yo'qligini kuylaydi. Avloniy hokimlar va tobelar - «kuchlilar» va «kuchsizlar» o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor beradi. Bu munosabatlarda inson nomiga munosib belgi topa olmaydi. Aksincha, ular yirtqich xayvonlarning zo'ri ojizini mahv etish asosiga qurilgan turmush tarzini esga tushiradi. lekin yirtqich hayvon bilan «inson-darranda» orasida farq bor. Bu farq shundaki, «inson-darranda» so'zlaydigan, fikrlaydigan yirtqichdir. U insof va vijdongan lof uradi. Dustlik, birodarlik haqida soatlab va'z o'qiy oladi. Egnidan taqvo libosi tushmaydi. Bu birgina Turkistonga xos xol emas. U hamma yerda mavjud. SHoir bunday holni raqib millat ichida emas, millatlar orasida ham ko'radi. Masalan, mamlakatlar o'rtasida bo'lib turadigan urushlar shuning bir ko'rinishi, deb hisoblaydi. Biroq «Bu kunda madaniy millatlar urushlarini tijorat va sanoatga aylandurdilar va bu soyada bir-birlariga g'alaba va raqobat qila boshladilar. Seg'rgarlik va jodugarlik ila emas, tijorat va

⁹ Абдулла Авлоний (Истиқлол қаҳрамонлари), танланган асарлар, 1-жилд, (шеърлар, ибратлар), Тошкент, «Маънавият», 1998 йил, 98-бет.

sanoatgarlik ila cholishkon yevropa, Afriko va Osiyoni o'ziga asir va musaxhar qilmokdadur»¹⁰. Bu bilan avvalo shoir millatlarning hayot-mamot masalasi xalq bo'layotganini ta'kidlab, ularni ogohlantirmokchi bo'ladi va zamonlar osha xalqning ozod, obod yashashiga ishonadi. «Istiqboldan orzularim» she'rida:

Garchi man ma'yusu purg'am millatim ahvolidan,

Kat'ummid aylamam ta'mini istiqbolidan,

Ilma rag'bat istaram millatni yoshu cholidan,

Ilmu donish yaxshi ziynat qiz-xotunga molidan,

*Ilm olub, shoyad qutulsa g'aflating changolidan.*¹¹

deya, erk va ozodlikni har narsadan baland tutadi va unga olib boradigan birdan-bir yo'l ilm-ma'rifatni bilish, uning atrofida bir tanu jon bo'lib birlashish kerak, deb uqtiradi. Avloniy odamlar o'rtasida mehr-muhabbat, do'stlik qaror topishiga, adolat va haqiqat tantana qilishiga, yorug' kunlar kelishiga astoydil ishonadi. Buning uchun esa xalq o'z haq-huquqlarini anglagan bo'lishi, nima uchun ko'rashayotganini aniq bilishi va o'z yo'lining to'g'riligiga ishonch hosil qilishi lozim, deb hisoblaydi. Uning 1912 yili yozilgan «O'z millatimdan rijoyi ojizonam» she'rida xalqni uyg'otishga qaratilgan quyidagi satrlar bitilgan:

YOtursan tobakay g'aflat Kuchog'inda, uyon, millat,

Jaxolat jomasin ustingdan Irgit, tur, zamon, millat,

Ketub hamroxlar, sen yo'lda qolmoqdan uton, millat,

Tur, o'tmay vaqt, noz uyqusidan Kubdir ziyon, millat,

Ko'zing och, yotma, g'aflatdan uson, Millat, uson, millat.

*Topar san birla avloding, Omon millat, omon millat.*¹²

¹⁰ Ўша асар, 56-бет.

¹¹ Ўша асар, 140-бет.

¹² «Гулистон» журналы, № 5, 1994 йил, 55-бет.

Abdulla Avloniy o'ttiz yildan ortiqroq ijod qildi. O'tgan davr ichida, o'zi ta'kidlaganidek, «o'nlab she'r va maktab kitoblari, to'rt teatr kitobi» qoldirdi. Uning pedagogik faoliyati, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari XX asrning boshlaridagi yangi bosqichga ko'tarilgan ma'rifatchilikning xususiyatlarini belgilashda muhim manbalardan hisoblanadi.

Abdurauf Fitrat 1884 yil Buxoroda tugilgan. Fitrat-Abduraufning taxallusi bo'lib, «tug'ma iste'dod» ma'nosini beradi. Otasi Abduraximboy savdo bilan shug'ullangani bois chet ellarga chiqar, dunyo ahvolidan boxabar, o'qimishli odam edi. Fitrat oilasining to'ng'ich farzandi edi. U boshlang'ich tarbiyani diniy maktabda oldi. 1909-1913 yillarda Turkiyada tahsil oldi. Turkiyadagi hayoti Fitratning dunyoqarashi, siyosiy ongi va adabiy didini o'zgartirib, uni har tomonlama o'sishi, shakllanishida katta turtki bo'ldi. Turkiston xalqi hayotiga Turkiyadagi o'zgarishlar va ilg'or mamlakatlar nuqtai nazaridan karay boshladi, diniy xurofotlarni keskin tanqid qilishga, hatto dinni, maktab-maorifni va Turkiyadagi idora usulini islox etish g'oyasi bilan nafas oldi. Fitrat 1938 yil 5 oktyabrda A.Qodiriy, CHO'lponlar bilan birga vaxshiylarcha otib o'ldirildi.

Fitrat «Va saxharalakumma fisasamavativ-al-arz - barcha yer va osmondagi narsalarga sizlarni hukm etuvchi deb bu-yurdik», - degan oyatga asoslanib, agar tog', temir, zamin inson barmog'i bilan o'zgarar ekan, nega u o'z taqdirini o'zgartirolmaydi va hukmdordan xayr-exson kutib yashashi kerak, degan savol quyadi. U muqaddas kitob oyatlarini taqdirga mutelik emas, o'z taqdirini o'zi yaratishga chaqirish sifatida talqin etadi. Jumladan, «inson har narsa topmasin, o'zining intilishidan topadi, intilmas ekansiz, xech narsaga erisha olmaysiz», - deydi muallif.

Fitrat taraqqiyotdan orqada qolmaslik kerakligini, aks holda buning oqibatlari kelgusi avlodlar oldidagi mas'uliyat hissining yuqolishiga olib kelishi hissining yuqolishiga olib kelishi haqida shunday yozadi: « agar siz, buxoroliklar

bu xudo bergan ne'matdan foydalanmasangiz, albatta, xayyal o'tmay begonalar bu boyliklarga ega bo'lib, ularning har birlarining ustidan fabrika va mashinalar urnatadilar. Dunyo-dunyo pul ishlab oladilar. Minglab xizmatchilar bu ishga safarbar silinadi. U vaqtda sizlarning farzandlaringiz chorasiz qolib, ularning xizmatlariga bo'yin egishlari muqarrar». Fitrat bu bilan iqtisodiy qoloqlik siyosiy tobelikka olib kelishini ko'zda tutgan. Vaqt o'tishi bilan ozodlik g'oyalari yuzaga qalqib chiqib boshlaganini Fitratning «Temur sag'anasi» pesasi qahramoni nomidan izhor etilgan quyidagi so'zlar dalolat beradi: «Xoqonim, ezilib talangan, talanib yiqilgan, yiqilib yaralangan turk elining bir bolasi sendan ko'mak istarga keldi. Bog'lari bo'zilgan, gullari so'lgan, bulbullari uchirilgan Turonning qorovuli senga arz etarga keldi. Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'yim bukuk, sening ziyoratingga keldim, sultonim! Ezilgan boshim, qisilgan vijdonim, kuygan qonim, o'rtagan jonim uchun bu sag'anangdan davo izlab keldim, xoqonim! YUz yillardan beri jafo ko'rib, g'am chekib kelgan turkning qonli ko'z yoshlarini etaklaringga to'karga keldim. Qorong'ular ichra qolgan o'zbek ko'zlari uchun tuprog'ingdan surma olgani keldim. Turkning nomusi, e'tibori, iymoni, vijdoni zolimlarning oyoqlari ostida qoldi. Turkning yurti, ulovi, o'chog'i, turoni yot qo'llarga tushdi. Turkning kelgusi, ongi, uylovi, ziyrakligi jaholat o'lkasiga ketdi. Sening qiliching bilan dunyo egasi bo'lgan turk tinchgina bir yotoq topolmay qoldi».¹³

Mazkur misralarda Amir Temur xo'rlangan va talangan avlodlari uchun ruxiy kuch-kudrat sifatida ta'riflangan. Bu esa jadidlarning ozodlik g'oyasini aks ettiruvchi omillardan biridir.

Jadid-ma'rifatparvarlar nafaqat Vatanga va milliy qadriyatlarga munosabati bilan, ayni paytda, umuminsoniy taraqqiyot yutuqlarini tushunishda ham tarixiy namuna bo'lishlari mumkin. Ular xech qachon milliy

¹³ Зиёев Ҳамид «Тарихнинг очилмаган саҳифалари», Тошкент, «Мехнат», 2003 йил, 131-бет.

doirada cheklanib qolmaganlar va ularning G'arb sivilizatsiyasi tomon intilishlarini tushunish mumkin. O'sha paytda G'arb texnologiyasi va ishlab chikarish darajasi jihatidan SHarqqa nisbatan ancha ilgarilab ketgan edi. SHuning uchun jadidlar yoshlarni bilim olishlari uchun Germaniya, Fransiya, Turkiya va boshqa mamlakatlarga o'qishga yuborishni talab qildilar. Bunday o'ta muxim g'oyalar M.Bexbudiynng «Extiyoji millat», Hamzaning «Muallif afandilarga ulug' rijomiz» va CHo'lponning «Duxtir Muhammadiyor» makolalarida bayon qilindi.

Bunda ular o'zlarining kelajakdagi davlat tuzumini barcha millatlarning birligi asosida tasavvur etadilar. Bu haqda Bexbudiyn shunday degan: «Biz joriy etgan qonunlar yaxudiylarning ham, nasroniylarning ham, musulmonlarning ham va umuman barchaning manfaatlarini himoya qilishi kerak. Agar biz, Turkiston musulmonlari, birgalikda isloxotlar o'tkazishni istasak, bizning ziyolilar, ma'rifatparvarlar, boylar, ruxoniylar va olimlar millat va Vatan farovonligiga xizmat qilishlari kerak. Agar bizni mustamlakachilik qonunlari bilan boshqarayotgan ekanlar, buning sababchisi, avvalo, o'zimizning noittifoqligimizdir».

Ushbu fikrlarni CHo'lponning 1922 yilda chop etilgan «Go'zal Turkiston» she'rida bayon etilgan g'oyalar mustaxkamlaydi:

Go'zal Turkiston, senga ne bo'ldi?

Sahar vaqtida gullaring suldi.

CHamanlar barbod, qushlar ham faryod,

Hammasi maxzun, bo'lmasmi dil shod?

Bilmam, na uchun qushlar uchmas bog'chalarinda?

Birligimizning tebranmas tog'i,

Umidimizning sunmas chirog'i.

Birlash, ey xalqim, kelgandir chog'i,

Bezansin endi Turkiston bog'i.

Ko'zg'ol, xalqim, yetar shuncha jabru jafolar.

Ol bayrog'ingni, qalbing uyg'onsin,

Qullik, asorat - barchasi yonsin.

Ko'r yangi davlat, yovlar o'rtansin,

O'sib Turkiston, qaddin ko'tarsin!

YAyrat, yashnat o'z Vataning gul bog'laringda.¹⁴

Xulosa qilib aytganda, jadidlar harakati mustamlakachilikka va milliy zulmga asoslangan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning mahsuli sifatida Turkiston mustaqilligini tiklashga qaratilgan edi. Ular Rossiyadagi siyosiy jarayonlarni diqqat bilan kuzatib bordilar. lekin milliy mentalitetning o'ziga xos xususiyati bo'lgan o'zbek xalqining tinchliksevarlikka, bosiqlikka moyilligidan kelib chiqib, ularni tinchlik yo'li bilan, jamoatchilikning va boshqa legal vositalar bilan hokimiyat tepasida o'tirganlardan o'z maqsadlarini amalga oshirish yo'lida yon berishga erishishga intildilar.

O'zbek xalki ma'rifatparvarlar, jadidlar orzu qilgan, kurashgan, intilgan ilm-ma'rifatli, ozodlik va obodlik, tinchlik va millatlararo totuvlik hukm surgan jamiyatga yillar, bir necha o'n yilliklar osha erishdilar. Bugungi kunga kelib O'zbekistonda 130 dan ortik millat va elatlar bir jonu bir tan bo'lib yashab kelmokda. Respublikada 17 diniy konfessiya ruyxatga olingan va rasman faoliyat ko'rsatmoqda, 170 dan ortik diniy tashkilotlar ishlab turibdi. Ayniksa, Vatanimiz ozodligi yo'lida shaxid ketgan Abdulla Kodiriy, CHulpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalk jigarbandlarining nomi, izzat-ikromi, hurmati o'z joyiga quyildi. Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakachilik

¹⁴ Чулпон, Асарлар, уч жилдлик, 1-жилд (шеърлар, драмалар, тар-жима), О.Шарафиддинов тахрири остида, Тошкент, 1994 йил, Г.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 146-бет

davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «SHaxidlar xotirasi» yodgorlik majmui barpo etildi.

Aloxida e'tibor berish kerakki, jadidlarning g'oyalari umumbashariy qadriyatlar bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Qayerda millatlararo totuvlik, ozodlik, erkinlik, diniy bag'rikenglik, o'zaro hurmat, do'stlik g'oyalarining ahamiyati anglab yetilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi - ular esa tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo'layotgan milliy nizolar shundan dalolat beradi. Prezidentimiz I.A.Karimov: «Bizning bugun erishgan eng katta yutug'imiz, eng katta boyligimiz - xalqimizning aql-zakovati, uning tanlagan yo'limizga ishonchi, mamlakatimizda hukm surayotgan xalqlararo do'stlik, fuqarolar totuvligi, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligidir»,¹⁵ - deb ta'kidlashi bejiz emas.

¹⁵ Каримов И.А. «Биздан Озод ва Обод Ватан Бқолсин», 2-том, Тош-кент, «Ўзбекстон», 1996, 296-бет.

Xulosa

Inson bu dunyoda yashar ekan, yo'l yuradi, ne-ne dovonlarni bosib o'tadi. Lekin yo'llarning go'zali - ezgulik sari inson qalbiga topilgan yo'ldir. Shu ma'noda, O'tmishda yurtimizda yashab diniy, falsafiy, ilmiy sohalarda ijod qilgan jahon sivilizatsiyasiga o'zining beqiyos hissasini qo'shgan buyuk allomalarimiz ma'naviyatimiz, undagi ahillik va bag'rikenglik g'oyalari haqidagi fikr-mulohazalari biz pedagoglar uchun komil inson tarbiyasidagi faoliyatimizga dasturil amaldir.

Jahonning aksariyat mamlakatlari kabi, O'zbekiston ham ko'pmillatli davlat. Yurtimizda o'zbeklar bilan biiga yuzdan ziyod millat va elat vakillari ahil va inoq yashaydi, bu muborak zaminni o'z Vatani deb biladi. Shuning uchun Prezidentimiz tomonidan aytilgan «**Bo aziz Vatan — barchamizniki**» degan g'oya, tili, dini va millatidan qat'i nazar, barcha yurtdoshlarimizning orzu-intilishlarini ifodalaydi. Chunki barchamizning baxt-saodatimiz mana shu Vatanning tinchligi, ozod va obodligi, milliy ravnaqi bilan bog'liq.

Millatlararo totuvlik va hamjihatlik — umumbashariy qadriyat. U muayyan jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turii millat va elat

vakillari ahilligining ma'naviy asosini mustahkamlaydi, shu hu-duddagi tinchlik va barqarorlikning, taraqqiyotning kafo-lati bo'lib xizmat qiladi.

Aslida har bir inson Vatan tuyg'usiga, ezgulik, bun-yodkorlik qilib yashash ehtiyojiga, odamzotga muhabbat hissiga ega. Shuning uchun har bir millat — Yaratganning buyuk mo'jizasidir. Chunki harbir millat jami odamzotga xos o'ta noyob fazilatlarni o'z tili, **o'z** an'ana va qadriyatlari, betakror turmush tarn oixjali go'zal bir shaklda namoyon etadi. Bir millat vakili boshqa millatning hayoti, turmush tarzi bilan tanishar ekan, bundan olam-olam bilim va taassurot oladi, tajriba orttiradi. Shu tariqa millat va elat-larning ko'pligi va xilma-xilligi insonga o'zligini ang-lash, taraqqiyot dialektikasini tushunib yetish imkonini beradi.

Ma'lumki, barcha insonlar umumiy ildizga ega. Qadimiy kitoblarda, afsona va rivoyatlarda aytilishicha, dunyodagi barcha insonlarning birinchi otasi Odam Ato, birinchi onasi esa Memo Have bo'lgan. Bu rivoyatning zamirida katta ma'no bor. Millatlarning tili, turmush tarzi va urf-odatlari bir-birini-~~kid~~idan farq qilsa-da, ularning orzu-intilishlari, hayotiy falsafasi deyarli bir xil. Hamma millat vakillari ozod va erkin yashashni, o'zidan munosib zurriyot qoldirishni, hayotdan zavqlanishni, baxtli bo'lishni istaydi. Hamma millat vakillari ezgulikni qadrlab, yovuzlikni qoralaydi. Tarixiy misollar ham buni yaqqol tasdiqlaydi. Masalan, o'tgan asrda fashizm dunyo xalqlari hayotiga xavf solganda butun insoniyat, millati va irqidan qat'i nazar, unga qarshi kurashga otlangan edi. Yoki Afg'oniston hududida uya qurib olgan xalqaro terrorchilik markazlari dunyoning turli burchaklarida qonli fojialarni sodir etganda jahondagi hamma davlat va millat vakillari bu yovuz kuchga qarshi kurashga bel bog'ladi, o'zining ezgulik yo'lidagi qat'iyatini namoyon etdi.

Bizning milliy g'oyamiz xalqimizning orzu-intilishlarini haqqoniy aks ettiigani uchun har qanday millatchilik, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik qarashJaridan mutlaqo xoli. Chunki xalqimiz azaldan do'stlik, birodarlik g'oyalarini ulug'lab keladi. Shu bois o'z yurtidagi boshqa millat vakillari bilan tinchlik, hamkorlik, hamjihatlik asosida yashaydi, ular bilan qiz olib qiz berishadi, to'yda ham, azada ham biiga bo'ladi.

Shuningdek, xalqimiz yon-atrofdagi, dunyoning olis mintaqalaridagi xalqlar bilan ham qadim-qadimdan hamkorlikka intilib kelgan. Sohibqiron Amir Temur bobomizning Fransiya qiroli bilan maktub orqali fikr almashgani, Yevropaning boshqa mamlakatlaridan kelgan elchilarni qabul qilib, ular bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishga intilgani buning yaqqol dalilidir.

Xalqimiz, barcha erksevar, taraqqiyparvar el-u elatlar kabi, insonni millatiga qarab emas, balki uning odamiylik xususiyatlariga qarab baholaydi. Kimki yaxshilik va ezgulikka xizmat qilsa, qaysi millat vakili bo'lishidan qat'i nazar, uni o'z bag'riga oladi, u bilan do'st, birodar bo'ladi. Bunga Ikkinchi jahon urushi yillarida sobiq SSSRning g'arbiy hududlaridan yurtimizga ko'chirib keltirilgan qanchadan qancha yetim bolalarni o'z farzandidek asrab-avaylab parvarish qilgan ota-bobolarimizning insoniy jasorati yorqin misol bo'la oladi.

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov xalqimiz uchun odamiylik fazilatlarini birinchi o'rinda turishini nazarda tutib, «O'zbekim» qasidasida bunday deb yozgani ham bejiz emas:

Sen na zardo'sht, sen na buddiy, senga na otash, sanam?

Odamiylik dini birla toza iymon, o'zbekim.

Millatlararo hamjihatlik g'oyasi xalqimizning ana shunday insoniylik fazilatlarini ifoda etadi va kelajakda bu an'analarni yanada boyitish va rivojlantirishni nazarda tutadi.

Millatlararo hamjihatlikka raxna soluvchi illat bu — tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushgan jamiyat halokatga uchraydi. XX asrda dunyoning ko'plab xalqlarini asoratga solishga intilgan fashizm g'oyasi bunga misol bo'la oladi.

Hozirgi murakkab globallashuv davrida ham turli g'oyaviy va mafkuraviy yo'llar bilan biron-bir xalq yoki millatga xos urf-odat, an'ana hamda qadriyatlarni kamsitish, yo'q qilishga qaratilgan tahdidlar sezilib turibdi. Bunday tajovuzlar ta'siriga tushmaslik uchun doimo hushyor va ogoh bo'lish, ilm-ma'rifatga tayanib yashash talab qilinadi. Shunday qilib, muayyan mamlakatga nom bergan millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o'rtasidagi hamjihatlik ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. Bu g'oya yagona maqsad yo'lida

mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Shuning uchun u har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild, T., «O'zbekiston» - 1996,
2. I.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. — T., «O'zbekiston», 1994,
3. I.Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1998 (I.Karimov. Na puti duxovnogo Vozrojdeniya. T., «O'zbekiston», 1997).
4. Islom Karimov. «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch». T., «Ma'naviyat», 2008.
5. Karimov I.A. «Bizdan Ozod va Obod Vatan qolsin», 2-tom, Toshkent, «O'zbekiston», 1996, 296-bet.
6. Uvatov U. Buyuk muhaddislar. T., 1998 y., 28-bet.
7. Aqmad Donish, «Navodir ul-vaqoye» (Nodir voqealar) , I.M.Muminov tahriri ostida , «Fan» nashriyoti, Toshkent, 1964 yil 63-bet
8. Alimova D.A., «Maxqumudxuja Bexbudiy va uning tarixiy tafakku-ri», «Akademiya», Toshkent, 1999 yil, 24-bet.
9. Abdulla Avloniy (Istiqlol qaxramonlari), tanlangan asarlar, 1-jild, (she'rlar, ibratlar), Toshkent, «Ma'naviyat», 1998 yil, 98-bet.

- 10.«Guliston» jurnali, № 5, 1994 yil, 55-bet.
- 11.Ziyoev Hamid «Tarixning ochilmagan saxifalari», Toshkent, «Mexnat», 2003 yil, 131-bet.
- 12.CHulpon, Asarlar, uch jildlik, 1-jild (she'rlar, dramalar, tarjima), O.SHarafiddinov taxriri ostida, Toshkent, 1994 yil, G.Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 146-bet
- 13.Azizxo'jayev A.A. Davlatchilik va ma'naviyat. -T.: «SHarq», 1997. 19-41-betlar.
- 14.Azizxo'jayev A.A. Chin o'zbek ishi. -T.: «Akademiya», 2003. 101-133-betlar.
- 15.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: «O'zbekiston», 2001. 173-189, 190-203-betlar.
- 16.Ergashev I. Nabiyeu E., Komilov N. va boshqa. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. - T.: Akademiya, 2005, 293-319-betlar.
- 17.Bekmurodov A.SH. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat: ustuvor masalalar va innovatsiyalar. - T.: TDIU, 2005. - 44 b.
- 18.To'xliyev N., Haqberdiyev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.
- 19.Ubaydullayeva R., Ata-Mirzayev O., Umarova N. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi. – T.: Universitet, 2006. – 96 b.
- 20.Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at // Mualliflar: M.Abdullayeva va boshqalar. – T.: Sharq, 2006. – 528 b.

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi

Navoiy davlat pedagogika instituti

**Tarix fakulteti “Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari” ta'lim
yo'nalishi IV kurs talabasi Mamatmurodov Umidning “Markaziy Osiyolik buyuk
allomalar ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari” mavzusidagi
bitiruv malakaviy ishiga ilmiy raxbar**

Taqrizi

Ma'naviy jihatdan yuksak xalq, millat o'zi tanlagan taraqqiyot yo'lidan hech qachon adashmaydi. Tarixi o'tmishini unutmaydigan, ajdodlarni yod olib turgan, ular tomonidan yaratilgan ma'naviy merosni asrab avaylagan, qadriyat, urf odat an'analari asosida ta'lim – tarbiyani olib borishni maqsad qilgan millat ko'zlagan maqsadiga erishishadi. O'zbekiston Respublikasida barpo etilgan demokratik jamiyatni mustahkamlash eng avvalo yoshlar ta'lim tarbiyasiga bog'liqlir. Bu borada davlatimiz tomonidan yoshlar uchun amalga oshirilayotgan ishlar aynan biz tanlagan yo'ldan borishdagi sa'yi – harakatlardir.

Bitiruv malakaviy ishi uchun tanlangan mavzu bugungi kunda dolzarb mavzu bo'lib, doimo o'z ahamiyatini yo'qotmaydi deb hisoblaymiz.

Bitiruvchi talaba Mamatmurodov Umidning “Markaziy Osiyolik buyuk allomalar ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi reja asosida va rejaga mos tarzda yozilgan. Birtiruv malakaviy ishi tushuntirish qismi, ikki bob, xulosa, ilovalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan reja asosida yoritilgan. Har bir bobda ikktadan savol qo'yilgan bo'lib, mavzuni to'liqroq yoritishga harakat qilgan. Adabiyotlardan qoniqarli keng foydalanilgan. Ayrim juziy kamchiliklar mavjud.

Xulosa qismida mulohazalar bayon etilgan. Bitiruvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishgan. Tadqiqot ishi bitiruvchi malakaviy ishida qo'yilgan talablarga javob beradi. Bitiruv malakaviy ishi 61 sahifadan 12 mingdan ortiq so'zdan iborat.

Yuqoridagilarni inobatga olib, bitiruvchi Mamatmurodov Umidning “Markaziy Osiyolik buyuk allomalar ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari” mavzusidagi bitiruv

malakaviy ishini ijobiy baholab, tugallangan ish sifatida himoya uchun tavsiya etish mumkin.

Ilmiy rahbar: o'qituvchi H.O. Abuyev

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti "Milliy istiqlol g'oyasi huquq va ma'naviyat asoslari" ta'lim yo'nalishi IV kurs talabasi Mamatmurodov Umidning "Markaziy Osiyolik buyuk allomalar ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T a q r i z

Bitiruvchi talaba Mamatmurodov Umidning ushbu mavzudagi bitiruv malakaviy ishini yozishda to'g'ri yondoshgan holda rejalar aniq tuzilgan bo'lib reja asosida yozilgan matn rejani to'liq yoritgan. Adabiyotlardan foydalanish tartibi va qoidalariga jiddiy e'tibor bergan holda ilmiy asosda ish olib borilgan.

Ushbu mavzuni yozishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun buyuk mutaffakkirlarimiz ilmiy, ma'naviy me'rosining ma'naviyatimizga ta'siri, yangi tamaddunning vujudga kelishi va buning ushun bobokalonlarimizning ko'rsatgan xizmatlari, yurtimizda mavjud bolgan yuksak umuminsoniy g'oyalari haqida ma'lumot berish bilan poytaxtimizning islom dinining ma'daniyat va ma'naviyat markazi deb atalishi asosli ravishda qisqa va aniq qilib yoritib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligidan so'ng dastlabki davrlardayoq tarixiy ilmiy, ma'naviy –ma'rifiy me'rosimizga e'tiborni kuchaytirilganligi va bu borada amalga oshirilgan bir qancha ishlarni yoshlar tarbiyasida o'ziga xos yuksak o'ringa ega. Bu haqda ko'pgina ma'lumotlarni kiritish mumkin edi, ayrim juziy kamchiliklardan xoli emas, lekin bu ishning mazmun mohiyatiga ta'sir etmagan.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda bitiruvchi, bakalavr ilmiy darajasini oluvchi talaba Mamatmurodov Umid tomonidan yozilgan ishni tugallangan hisoblab himoyaga tavsiya etaman.

Dots. R. Rajabov _____